

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 36:35

SATTOROVA YULDUZXON ZIYODULLA QIZI

**PENSIYA JAMG'ARMASI MABLAG'LARIDAN INVESTITSION
MAQSADLARIDA FOYDALANISH**

Mutaxassislik: 5A231301 – “Pensiya ishi”

Magistr akademik darajasini olish ushun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

A.N.Umirzakov

TOSHKENT – 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. O'ZBEKISTONING IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQ- QIYOTIDA PENSIYA JAMG'ARMASINING ROLI VA INVESTITSİYALARNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	8
1.1. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida Pensiya jamg'armasining o'rni va tashkiliy-huquqiy asoslari.....	8
1.2. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda investitsiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	16
1.3. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanishning xorij tajribalari.....	24
I bob bo'yicha xulosa.....	32
II BOB. PENSIYA JAMG'ARMASI MABLAG'LARIDAN INVESTITSION MAQSADLARIDA FOYDALANISH AMALIYOTINING TAHLILI.....	33
2.1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining tahlili.....	33
2.2. Jamg'arib boriladigan pensiya mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish amaliyotining tahlili.....	42
2.3. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanishning xorij tajribalari tahlili.....	51
II bob bo'yicha xulosa.....	59
III BOB. O'ZBEKISTONDA PENSIYA JAMG'ARMASI MABLAG'LARIDAN INVESTITSION MAQSAD- LARIDA FOYDALANISH VA UNI TAKOMILLASH- TIRISH MASALALARI.....	61
3.1. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanishning ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	61
3.2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini takomillashtirish yo'llari.....	72
III bob bo'yicha xulosa.....	79
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	85
ILOVALAR.....	90

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanish bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, XXI asr va yaqin kelajakda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barcha jabhalarini modernizatsiyalashsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash esa, o'z navbatida, katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, uni intensiv rivojlantirish ham ko'p jihatdan investitsiyalarga borib taqaladi. Hatto, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish, jahon bozorlarini egallash, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishni investitsiyalarsiz ta'minlashning iloji ham yo'q. Ifodali qilib aytganda, investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganlaridek: "qariyalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha tasdiqlangan dasturni amalga oshirish alohida nazoratga olinishi kerak. Har bir imtiyoz va ijtimoiy himoya chorasi o'z egasiga etib borishi darkor"¹. Albatta, ushbu fikrlar pensiya ta'minoti tizimi masalasiga bevosita taalluqli hisoblanadi.

Moliyaviy resurslardan investitsion maqsadlarida foydalanish O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, bu masala aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish masalasiga ham bevosita daxldordir. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi: Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

Harakatlar strategiyasi²ning 4-yo'nalishi – “Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish” – aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish ham, o'z navbatida, investitsiya resurslarini talab qiladi. Shuningdek, “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini amalga oshirish doirasida aholi bilan doimiy va ochiq muloqotni rivojlantirishga, aholi turmush darajasi va sifatini, uning moddiy farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni faol moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor beriladi”³.

Xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, pensiya fondlarining mablag'lari investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikamizda Pensiya jamg'armasi mablag'larini, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini investitsiyalarga samarali transformatsiya qilish muhim masala bo'lib turibdi.

Pensiya jamg'armasi mablag'larini joylashtirish mumkin bo'lgan investitsiyalash obyektlarini tanlashda moliya bozorlarining tegishli sohalarining tayyorligini aniqlash lozim bo'ladi. Pensiya jamg'armasi mablag'lari YaIMni oshirishga yo'naltirilishi va iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalanishi lozim. Pensiya jamg'armasi mablag'larini aktsiyalarga investitsiyalash ishlovchilarga daromadlarda ishtirok etish va oxir-oqibatda yuqoriroq pensiyani ta'minlash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanish masalalarini ilmiy tadqiq qilish va uni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligi ushbu magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

³ Monetar siyosatning 2017-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. www.cbu.uz.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Pensiya jamg'armasi mablag'larini investitsiyalash magistrlik dissertatsiya ishining obyekti hisoblanadi. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy munosabatlar magistrlik dissertatsiya ishining predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish belgilab olindi:

- O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida Pensiya jamg'armasining o'rni va tashkiliy-huquqiy asoslarini yoritish;
- milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda investitsiyalardan foydalanishning ahamiyati va xususiyatlarini ochib berish;
- Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanishning xorij tajribalarini o'rganish;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarini tahlil qilish va unga oid tendentsiyalarni aniqlash;
- jamg'arib boriladigan pensiya mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish amaliyotini tahlil qilish;
- Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanishning xorij tajribalarini tahlil qilish va uning ilg'or tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini ochib berish va asoslash;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini tadqiq etish;
- Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi:

- investitsiyalarning iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashdagi rolga baho berilgan, yalpi ichki mahsulot va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya omillarining korrelyatsion tahlili asosida ushbu ikki omilning o'zaro bog'liqligi aniqlangan;

– Pensiya jamg’armasi mablag’laridan investitsiya maqsadlarda foydalanishning ilg’or xorij tajribalaridan O’zbekistonda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan va ular yuzasidan muhim ilmiy xulosalar shakllantirilgan;

– jamg’arib boriladigan pensiya mablag’arini investitsiyalashni takomillashtirishga yo’naltirilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan, shuningdek, jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini joylashtirish obyektlari tavsiflangan va tasniflangan;

– Pensiya jamg’armasi mablag’laridan investitsion maqsadlarida foydalanishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo’llanilishi istiqbolda Pensiya jamg’armasi mablag’laridan investitsion maqsadlarida foydalanish imkonini yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi.

Tadqiqot mavzusi bo’yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Investitsiya faoliyati, pensiya tizimi va pensiya ta’minoti, pensiya fondlari mablag’larini investitsiyalash bo’yicha bir qator xorijlik iqtisodchi-olimlar⁴ ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular jumlasiga – Сергеев И.В., Веретенникова И.И., Нешиной А.С., Jun Peng, E.Philip Davis, Борисенко Н.Ю. kabilarni kiritish mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan⁵ B.A.Begalov, B.X.Umurzakov, A.V.Vaxabov, D.G’.G’ozibekov, M.D.Ziyadullaev, T.S.Malikov, Z.A.Abdullaev, Z.X.Srojiddinova, B.S.Mamatov, Sh.Sh.Allayarov va D.A.Toshmuxeammadovalar ilmiy ishlarida ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta’minot, davlat pensiyalari, nodavlat

⁴ Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций. – М.: «Финансы и статистика», 2001. – 267 с.; Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. – М.: «Дашков и К0», 2006. – 372 с.; Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.; E.Philip Davis. Pension Funds: Retirement-Income Security and Capital Markets: An International Perspective. Print ISBN-13: 9780198293040. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012. – P. 2-3; Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К0», 2009. – 576 с.

⁵ Begalov B.A. Pensiya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo’llari.; Umurzakov B.X. Социальные и демографические особенности совершенствования пенсионного обеспечения Узбекистана; Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari; Ziyadullaev M.D. Pensiya ta’minotidagi islohotlar va yaratilgan interaktiv xizmatlar.; Abdullaev Z.A. Yoshga doir ijtimoiy nafaqaning mazmun mohiyati va uning O’zbekistondagi pensiya ta’minoti tizimida tutgan o’rni.; “O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman tezislari to’plami. 2017-yil 24-mart. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. – 420 b.; G’ozibekov D.G’. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya”, 2003. – 332 b.; Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: “Noshir”, 2012.–712b.; Srojiddinova Z.X. O’zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – Toshkent: “infoCom.UZ” MChJ nashriyoti, 2010. – 367 b.; Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 608 b.; Allayarov Sh., Toshmuxeammadova D. Davlat pensiya ta’minoti. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 232 b.

pensiya fondlari, investitsiya faoliyati va uni moliyalashtirish kabi masalalar tadqiq qilingan. Ushbu ilmiy ishlardan farqli o'laroq, mazkur magistrlik dissertatsiya ishida Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanish masalalari tadqiq qilingan va uni takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot jarayonida dinamik, qiyosiy, deduktik, mantiqiy, analitik, sintetik va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanishga oid davlat dasturlari ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", "Pensiya jamg'armasi faoliyati", "Davlat pensiya ta'minoti" hamda "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti" kabi fanlarning o'quv dasturlarini o'qitishda va takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami 95 betni tashkil qiladi. Tadqiqot ishida 15 ta jadval, 17 ta rasm va 6 ta ilova keltirilgan.

Magistrlik dissertatsiyasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida Pensiya jamg'armasining o'рни va tashkiliy-huquqiy asoslari, Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanishning xorij tajribalari yoritilgan, Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari tahlili, jamg'arib boriladigan pensiya mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish amaliyoti hamda Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanishning xorij tajribalari tahlil qilingan. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanish hamda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yisha xulosalar shakllantirilgan va ularni takomillashtirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

I BOB. O'ZBEKISTONING IJTIMOIIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDA PENSIYA JAMG'ARMASINING ROLI VA INVESTITSIYALARNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida Pensiya jamg'armasining o'рни va tashkiliy-huquqiy asoslari

Ma'lumki, fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga etganida, nogironlik tufayli mehnat faoliyatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va me'yorlar asosida beriladigan har oylik to'lovlarga pensiya deyiladi. Pensiya ta'minoti esa ushbu to'lovlarni maxsus Pensiya jamg'armalari mablag'lari hisobidan fuqarolarga to'lanishining ta'minlanishidir.

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁶ 444-sonli qaroriga muvofiq, 2001-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan.

Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lashga yo'naltiriladigan mablag'larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

⁶ Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrdagi 490-sonli "Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi [qaroriga](#) asosan o'z kuchini yo'qotgan.

Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrdagi “Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 490-son qaroriga⁷ asosan, 2005-yil 1-yanvardan boshlab O’zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg’armasiga aylantirilgan.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining hududiy bo’linmalari fuqarolarning pensiya ta’minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi (TME) masalalarining butun kompleksi uchun mas’ul bo’lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funktsiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etilgan. Ta’kidlash joizki, O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2016-yil 22-fevraldagi “Aholining zaif qatlamini ijtimoiy muhofaza qilish hamda tibbiy va ijtimoiy yordam ko’rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoniga binoan Mehnat vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga aylantirildi.

Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda, jumladan, AQShda pensiya fondlarini davlat tomonidan boshqarilishi pensiyaga chiqish davlat dasturlari ijrosiga mas’ul shaxslar bilan barcha asosiy masalalarni bazaviy va tizimli muhokama qilinishini ta’minlaydi. Ularda ham pensiya tizimining shakllanish tarixi chuqur o’rganiladi, bunda pensiya sug’urtasi va tarkibi, moliyaviy hisobotlar, pensiya jamg’armasi aktivlarini investitsion boshqarish masalalariga alohida e’tibor beriladi⁸.


Pensiya jamg’armasining asosiy tamoyili – avlodlar majburiyatlarining ta’minlanishidir. Chunki, inson hamma vaqt birdek kuch-g’ayratli bo’lmaydi. Mohiyatan olib qaralganda, inson yoshlik vaqtlaridan boshlab keksalikdagi

⁷ Mazkur qaror O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 24 martdagi 52-sonli “O’zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish, shuningdek ba’zilarini o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblash to’g’risida” (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2009 yil 30 dekabrda PQ-1251-son hamda “O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2009 yil 30 dekabrda PQ-1252-son qarorlari)”gi qaroriga asosan o’z kuchini yo’qotgan.

⁸ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 29-35.

farovonlikni ta'minlash maqsadida Pensiya jamg'armasi ixtiyoriga pul o'tkazib boradi va ma'lum vaqt o'tgandan so'ng o'zi jamg'argan mablag' hisobidan pensiya oladi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi uchta asosiy shaklda amalga oshiriladi: ijtimoiy ta'minot; ijtimoiy sug'urta; ijtimoiy yordam (1.1-rasm). Shu bilan bir qatorda, aholining ijtimoiy muhofaza qilishning davlat va nodavlat shakllari amal qiladi, farqlanadi.



1.1-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi⁹

Ijtimoiy ta'minot – bu fuqarolar ayrim toifalarini davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari maxsus fondlar mablag'lari hisobidan moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan davlatning ijtimoiy yordam ko'rsatish shaklidir. Fuqarolarga bunday yordam davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan muhim deb e'tirof etilgan hollarda ko'rsatiladi. Ana shu yordamdan aholining nochor qatlamlari ahvollarini

⁹ Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: "Iqtisodiyot", 2013. 350-b.

jamiyatning boshqa a'zolari bilan imkoniyat darajasida tenglashtirish maqsadi ko'zlanadi.

Ijtimoiy sug'urta – davlat tomonidan belgilab qo'yilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli, byudjetdan tashqari ijtimoiy sug'urta fondlari, shuningdek, boshqa jamoaviy va xususiy sug'urta fondlari mablag'lari hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy ta'minlash, qo'llab-quvvatlash tizimidir.

Pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4161-sonli farmoniga muvofiq Pensiya jamg'armasi vazifalari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining¹⁰ fuqarolar pensiya ta'minoti va TMEsi uchun mas'ul ayrim bo'linmalarining funktsiyalarini topshirish hisobidan kengaytirildi.

2010-yildan boshlab Pensiya jamg'armasi idoraviy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibiga kiritilgan. Pensiya jamg'armasi o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga, Jamg'armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Pensiya jamg'armasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

¹⁰ Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Mehnat vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga aylantirildi. Barcha ijtimoiy muhofaza bo'limlari Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufiga o'tkazilgan.

huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomga¹¹ amal qiladi.

Pensiya jamg'armasi o'z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Pensiya jamg'armasi tizimiga: Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari; Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari; Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi; bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi. Jamg'arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, TMEsi xizmatlari ta'minoti respublika byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Pensiya jamg'armasi hamda uning hududiy bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, tegishli muhr va shtamplarga ega bo'ladi.

Pensiya jamg'armasini boshqarishning yuqori organi bo'lib Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi hisoblanadi, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining tarkibi¹² 2010-yil 1-yanvardan tasdiqlangan va amalga kiritilgan. Kuzatuv kengashining qarori uning majlisda qatnashgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi vakolatlarini 1-ilova orqali ifodalaymiz.

Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati tuzilmasi, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan tasdiqlanadi. Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga Jamg'arma Kuzatuv kengashining taqdimnomasi bo'yicha, belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadigan ijro etuvchi direktor boshchilik qiladi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sonli qarori asosida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1252-son qarori.

Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.


Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori: Pensiya jamg'armasi faoliyatiga rahbarlik qiladi; o'z vakolatlari doirasida ijro etuvchi direktorning o'rinbosarlari hamda hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari, shuningdek, respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va TMEsi xizmatlari rahbarlari o'rtasida lavozim vazifalarini taqsimlaydi; o'z vakolatlari doirasida hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari, respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi va TMEsi xizmatlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar, yo'riqnomalar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi; belgilangan mehnatga haq to'lash fondi va xodimlarning soni doirasida ijro etuvchi apparatning shtatlar jadvaliga o'zgartirishlar kiritadi va uni tasdiqlaydi, Pensiya jamg'armasining tarkibiy boshqarmalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi; Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati xodimlarini, Pensiya jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalarining boshliqlari o'rinbosarlarini, Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh TME komissiyalari raislari o'rinbosarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi; TMEsi xizmatlari faoliyatiga rahbarlik qiladi; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda Moliya vazirligiga TMEKni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish bo'yicha takliflar kiritadi; pul mablag'lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobi yuritilishini, statistika va buxgalteriya hisobotlari tuzilishini va belgilangan tartibda taqdim etilishini tashkil qiladi; Pensiya jamg'armasining vaqtincha bo'sh pul mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga va boshqa moliyaviy vositalarga joylashtiradi; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar va vakolatlarni amalga oshiradi.

Pensiya jamg'armasining respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi respublikada TMEsi sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linma hisoblanadi. Inspeksiyaning moddiy-texnika ta'minoti ajratilgan

mablag'lar doirasida davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Pensiya jamg'armasi davlat moliya tizimining tarkibiy qismini tashkil etadi va bevosita davlatning ijtimoiy funktsiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Chunki davlatning ijtimoiy siyosati tadbirlarini, ijtimoiy va pensiya ta'minotini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda Pensiya jamg'armasi asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha Pensiya jamg'armasining 14 ta hududiy boshqarmalari, 196 ta tuman (shahar) bo'limlari, 108 ta hududiy va ixtisoslashtirilgan TMEKlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Respublikamiz bo'yicha jami 3 milliondan ziyod pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar mavjud.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida 2010-yil 1-yanvardan boshlab Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi (1.2-rasm), Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi (1.3-rasm), Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalarining va tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalari o'zgartirildi.



1.2-rasm. Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi¹³

¹³ <http://pfru.uz/uz/articles/5/> sayti ma'lumotlari.

Pensiya jamg'armasi: qonunda belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash; pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish kabi vazifalarni amalga oshiradi.



1.3-rasm. Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati tuzilmasi¹⁴

Shuningdek, Pensiya jamg'armasi: tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish,

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda PQ-1252-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2-ilova.

fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishini ta'minlash; mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish; "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 12-moddasi "b"-bandiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lashga xarajatlarni qoplash uchun mablag'larni yuridik shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish; TMEsi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

1.2. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda investitsiyalardan foydalanishning ahamiyati

Investitsiya milliy iqtisodiyotda nisbatan yangi termin hisoblanadi. Investitsiya¹⁵ (lot. "investio" – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish)dir. An'anaviy tarzda investitsiya deganda kelgusida ko'zda tutilgan daromadlarni olish maqsadida hozirda aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tushuniladi. Investitsiya mohiyatini tavsiflashdagi bunday yondashuvga milliy, shu bilan birga, xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda birlamchi e'tibor beriladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati¹⁶ va mazmuni¹⁷ to'g'risida iqtisodchi-olimlar o'rtasida xilma-xil qarashlar va fikrlar mavjud. Bu so'zning ham keng ma'nosidan, ham tor ma'nosidan foydalanish mumkin. "Investitsiya" tushunchasining ma'no-mazmuniga hozirgacha yakuniy bir ta'rif berilmagan va iqtisodiy fanning turli sohalarida investitsiyaning maqsadi, vazifalari, manbasi,

¹⁵ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: "O'ME" davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. 145-b.

¹⁶ "Mohiyat" ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida haqiqat, har narsaning asli, tub negizini, ya'ni biror narsaning zamiridagi tub, eng muhim ma'no, ichki mazmun, mag'izni anglatadi. "Ma'no", "mazmun" va "mohiyat" to'g'risida batafsil qarang: O'zbek tilining izog'li lug'ati / Tahrir hay'ati: T.Mirzaev va boshq. – T.: O'zME, 2006. 2-jild. 525-621-b.

¹⁷ "Ma'no" arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida mazmun, tushuncha va g'oyani anglatadi. U so'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalangan tushuncha, biror narsaning mohiyati, nima ekanligi, mohiyatni bildiradi. "Mazmun" ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida mundarija yoki ma'noni anglatadi.

mablag' kiritish sohalari va obyektlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, turlicha ta'rif berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunining 3-moddasida¹⁸ investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berilgan: "investitsiyalar – qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar".

Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminov, D.G'ozibekov, D.Tojiboeva, N.Qo'zieva, G.Maxmudova, B.Mamatovlar tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va munosabat bildirilgan. Jumladan, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha bayon etilgan ta'rifda: "investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aktsiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar"¹⁹, deb ta'riflangan.

Prof. D.G'ozibekov tomonidan investitsiyalarning mazmuniga quyidagicha ta'rif berilgan: "aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi. Ana shu belgilariga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan mazmunan farq qiladi. Bular barchasining asosida kapitalning harakatlanish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalarning mohiyatini aks ettiradi"²⁰. Umuman, iqtisodiyotda investitsiyalar kapitalni

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni, 3-modda.


¹⁹ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Moliya", 2010. 303-b.

²⁰ G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: "Moliya", 2003. 26-b.

jamg'arish jarayoni sifatida sharhlanadi.

Rejali iqtisodiyot davrida iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda kapital qo'yimlarning bir muncha keng tarqalgan tasnifi (turlari) xususiyatlariga ko'ra keltirilgan²¹.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiyalarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir:



1.4-rasm. Investitsiyalarning tasnifi²²

Shunday qilib, investitsiyalarning jamg'arish (boyliklar, resurslar), qo'yish (solish, joylashtirish, sarflash), kapitallashuv (kapitalizatsiya, mahsulot yaratilishi) va iqtisodiy yoki ijtimoiy samara olishdek dinamik harakatda bo'lishligini ta'kidlash lozim.

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida qator funktsiya va vazifalarni bajaradi-ki, ularsiz har qanday mamlakat iqtisodiyoti bir maromda rivojlana olmaydi. Investitsiyalar makrodarajada quyidagilarni ta'minlaydi:

– takror ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirish;

²¹ Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций. – М.: «Финансы и статистика», 2001. – Стр. 13-14.

²² Tadqiqot natijalari asosida magistrant tomonidan shakllantirilgan.

- ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, uning sifati va hajminini oshirish;
- ijtimoiy sohalarni rivojlantirish;
- aholi farovonligini ta'minlashda muhim bo'lgan uy-joy qurilishi, ichimlik suvi, gaz, elektr energiya bilan ta'minlash muammolarini hal etish;
- atrof-muhit va ekologiya ifloslanishining oldini olish;
- umumjamiyat ishlab chiqarishini tarkibiy jihatdan qayta qurish va barcha iqtisodiyot tarmoqlarini bir maromda rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektori va etakchi tarmoqlarini rivojlantirish;
- hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ixtisoslashuvini mustahkamlash;
- investitsiyalar importi va eksporti orqali milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasini kuchaytirish;
- sanoat uchun zarur xom ashyo bazasini yaratish;
- ishsizlik muammosini yumshatish yoki ma'lum darajada hal etish;
- mamlakatning harbiy sanoat majmuini mustahkamlash;
- davlatning mudofaa imkoniyatlarini ta'minlash;
- boshqa muammolarni hal etish.

O'zbekiston Respublikasi uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, iqtisodiyotni yanada barqarorlashtirish uchun zarurdir. Real investitsiyalarni (bino va inshootlar qurish va modernizatsiya qilish, zamonaviy mashina va asbob-uskunalar sotib olish) jalb qilish iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni olib kelishga yo'naltirilgan investitsiyalar qattiq raqobat sharoitlarida omon qolishga ko'maklashadi.

Investitsiyalar mikrodarajada ham muhim rol o'ynadi. Bunda investitsiyalar, eng avvalo, quyidagi maqsadlarga erishish uchun zarurdir: korxona ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish; asosiy fondlarning haddan tashqari jismoniy va ma'naviy eskirishiga yo'l qo'ymaslik; ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini oshirish; korxona mahsuloti raqobatbardoshligini ta'minlash va uning sifatini oshirish; tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish;

qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa korxona aktivlariga o'z mablag'ini sarflash.

Investitsiyalar mikrodarajada, pirovardida, korxonalarining barqaror moliyaviy holatini va yuqori foyda olishini ta'minlash uchun zarurdir.

So'nggi yillarda milliy iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda (1.1-jadval).

1.1-jadval

O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi va ularning jami investitsiyalardagi salmog'i²³

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Jami investitsiyalar, mlrd. AQSh dollari hisobida	9,7	10,8	11,7	13,0	14,6	15,8	16,7
Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. AQSh dollari hisobida	2,8	2,5	2,6	3,0	3,1	3,3	3,8
Jami investitsiyalarda xorijiy investitsiyalarning ulushi (foizda)	28,8	23,4	21,9	23,0	21,2	20,8	22,8


2016-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan jami investitsiyalar 16,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 1,7 martaga, xorijiy investitsiya va kreditlar 1,3 martaga ortgan. Shu bilan birga, jami xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi salmog'i - 6,0 f.p.ga pasayish tendentsiyasiga ega. Buning asosiy sababi jami investitsiyalarning o'sish sur'ati mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'atidan yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Buning uchun xorijiy sarmoyalar va ilg'or texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz zarur bo'ladi"... "Aynan shu asosda 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki

²³ www.mineconomy.uz. sayti ma'lumotlari.

mahsulotini 2 barobardan ziyod ko'paytirishga erishishimiz darkor"²⁴.

Albatta, 2030-yilgacha mamlakatimizda YaIMni 2 barobarga oshirish, o'z navbatida, iqtisodiyotimizda ichki investitsiyalar hajmini yanada oshirishni taqozo etadi. Bu borada O'zbekistonda YaIM o'sishiga mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmiga bog'liqligi qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil usulidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, ikki ko'rsatkich (X – YaIM va Y – investitsiyalar) miqdorlarning korrelyatsiya koeffitsienti deb, ushbu miqdorlar chegirmalari ko'paytmasi natijasini shu miqdorlar o'rtacha kvadratli chegirmalari ko'paytmasi nisbatiga aytiladi hamda quyidagi formula orqali X va Y belgilari orasidagi bog'lanishni va uning kuchini aniqlaymiz:



1.5-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining o'zgarishi²⁵

$$R_{xy} = \sum (X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y}) / \sqrt{\sum (X_i - \bar{X})^2 \sum (Y_i - \bar{Y})^2} \quad (1)^{26}$$

$$1) \bar{X} = (17 + 22,3 + 28,1 + 32,1 + 38,1 + 45,9 + 49,6 + 53,3 + 62,6 + 68,0) / 10$$

$$\text{Bundan } \bar{X} = 41,7$$

$$\bar{Y} = (4,7 + 6,5 + 8,2 + 9,7 + 10,8 + 11,7 + 13,0 + 14,6 + 15,8 + 16,6) / 10$$

$$\text{Bundan } \bar{Y} = 11,16$$

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

²⁶ Zokirova M.Sh., Abdug'afforov A.A. Iqtisodiy modellash tirish amaliyoti. – T.: "O'zbekiston", 1999. 9-b.

2) 1.5-rasm ma'lumotlari asosida quyidagicha hisoblash ishlarini amalga oshiramiz:

1.2-jadval

Yalpi ichki mahsulot va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya omillarining korrelyatsion tahlili²⁷

Yillar	$X_i - \bar{X}$	$Y_i - \bar{Y}$	$(X_i - \bar{X}) * (Y_i - \bar{Y})$	$(X_i - \bar{X})^2$	$(Y_i - \bar{Y})^2$
2007	-24,7	-6,46	159,6	610,1	41,7
2008	-19,4	-4,66	90,4	376,4	21,7
2009	-13,6	-2,96	40,3	185,0	8,8
2010	-9,6	-1,46	14,0	92,2	2,1
2011	-3,6	-0,36	1,3	13,0	0,1
2012	4,2	0,54	2,3	17,6	0,3
2013	7,9	1,84	14,5	62,4	3,4
2014	11,6	3,44	39,9	134,6	11,8
2015	20,9	4,64	97,0	436,8	21,5
2016	26,3	5,44	143,1	691,7	29,6
Jami	0,00	0,00	602,29	2619,64	141,10

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi bilan mamlakat YaIM o'zgarishi orasidagi korrelyatsiya koeffitsientini topamiz. Buning uchun hisoblash ishlari quyidagicha amalga oshirilgan:

3) Jadval ma'lumotlaridan foydalanib, korrelyatsion bog'lanish formulasi orqali bog'lanish koeffitsiyentini topamiz:

$$R_{xy} = \sum (X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y}) / \sqrt{\sum (X_i - \bar{X})^2 \sum (Y_i - \bar{Y})^2} \quad (2)$$

$$R_{xy} = 602,29 / \sqrt{2619,64 * 141,1}$$


$$R_{xy} = 0,9906$$

Demak, korrelyatsiya koeffitsienti, ya'ni $R = 0,9906$ ga teng. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan investitsiyalar hajmi YaIM hajmining o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir va bu bog'liqlik juda kuchli. Shu sababli, YaIM o'sishini ta'minlashda investitsion muhit jozibadorligini

²⁷ Muallif ishlanmasi.

oshirish orqali investitsiyalar hajmini ko'paytirish eng muhim omillardan hisoblanadi.

Jami investitsiyalar tarkibida ichki investitsiyalarning ulushi 2010-2015 yillarda o'rtacha 72-75 foizni tashkil qilgan. Demak, YaIM o'sishini ta'minlashda ichki investitsiyalar harakatining faolligi kuzatiladi. Bunda tijorat banklarining investitsion kreditlari ham muhim o'rin egallaydi. Banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Buni quyidagi 1.6-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.



1.6-rasm. Tijorat banklarining investitsion kreditlari, mlrd.so'mda²⁸

Xususan, 2016-yilda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 12,2 trln. so'm investitsion kreditlar berildi va bu ko'rsatkich 2008-yilga nisbatan 8,1 martaga ortgan. Bu esa tijorat banklarining investitsiya faoliyati kengaytirilishini, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish imkonini berdi.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

1.3. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanishning xorij tajribalari

Hozirgi kunda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish sharoitida davlatning maqsadli jamg'armalarini daromadlilikini oshirish, ularning mablag'laridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardandir. Bizning fikrimizcha, aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytirish lozim, bu ishlarning hammasiga davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'larini keng jalb etish zarur bo'ladi.

Fuqarolarni nafaqalar bilan ta'minlashga oid munosabatlar, qonunlar vositasida tartibga solinishi yo'lga qo'yilishi kerak. Shu maqsadda hozir bu sohada amal qilayotgan qonun osti me'yoriy hujjatlari o'rniga maxsus qonunlar qabul qilinishi dolzarb bo'lib turibdi.

Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari xususida gap ketganda hozirgi paytda jahon mamlakatlarida qo'llanilib kelinayotgan mehnat pensiyasini olish uchun andozaviy pensiya yoshi va ish stajiga nisbatan bo'lgan talablar xususida holatlar ham alohida ahamiyatga ega (1.3-jadval).

1.3-jadval

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida mehnat pensiyasini olish uchun andozaviy pensiya yoshi va ish stajiga bo'lgan talablar²⁹

№	Mamlakatlar	Andozaviy pensiya yoshi		Ish stajiga talablar	
		Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
1.	AQSh	66	66	10	10
2.	Buyuk Britaniya	65	60	44	39
3.	Gretsiya	65	65	12	12
4.	Germaniya	65	65	15	15
5.	Ispaniya	65	60	18	18
6.	Italiya	60	60	40	40
7.	Fransiya	66	66	10	10
8.	Yaponiya	65	65	25	25
O'rtachasi		64,5	62,6	21,2	20,5

²⁹ www.undp.uz. sayti ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi 1.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha andozaviy pensiya yoshining erkaklar bo'yicha 64,5 yoshga va ayollar bo'yicha esa 62,6 yoshga teng qilib belgilanganligi, ish stajiga talablarning erkaklar uchun 10 yildan (masalan, AQSh va Frantsiyada) 40-44 yilgacha (masalan, Buyuk Britaniya va Italiyada) tebranishi, barcha mamlakatlarda (bundan Buyuk Britaniya mustasno) ish stajiga nisbatan bo'lgan talabning erkak va ayollar uchun bir xilligi va h.k.lar bu boradagi jahon tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish yoki foydalanmaslik imkoniyatlari borasida chuqur tahlil ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Halqaro miqyosda, aholi turmush darajasining yaxshilanib borishi hamda tibbiyot sohasida so'ngi 10 yillar ichida yuz bergan kashfiyotlar insonlarning o'rtacha umr ko'rish yoshi davomiyligini uzayishiga va pirovard natijada jamiyat aholisi tarkibida qariyalar (pensionerlar) sonining nisbatan o'sishiga olib keldi (1.4-jadval).

1.4-jadval

**Dunyo mamlakatlarida aholining o'rtacha umr ko'rish
yoshining o'zgarishi³⁰**

Mamlakatlar	1970-1975 Yillar	2000-2005 yillar	2010 yil	1970-2010 yillar farqi
AQSh	71,5	77,4	78,7	+7,2
Buyuk Britaniya	72,0	78,5	80,3	+8,3
Germaniya	71,0	78,7	80,6	+9,6
Italiya	72,1	79,9	82,0	+9,9
Ispaniya	72,9	80,0	81,6	+8,7
Frantsiya	72,4	79,6	81,7	+9,3
Yaponiya	73,3	81,9	83,6	+10,6
Xitoy	63,2	72,0	73,7	+10,5
Xindiston	50,7	62,9	65,8	+15,1
Rossiya	69,0	64,8	69,1	+0,1
O'zbekiston	63,6	66,5	68,6	+5,0

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 1950-yilda aholi umumiy soniga nisbatan 70 yoshdan katta bo'lgan aholining soni 1 foizni tashkil etgan, 2000-yillar boshiga kelib ushbu ko'rsatkich 5 foizni tashkil etdi (1.5-jadval).

³⁰ www.undp.uz. sayti ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

Dunyo mamlakatlarida 65 va undan yuqori yoshdagilarning aholi umumiy sonidagi ulushi (foiz hisobida)³¹

Mamlakatlar	65 va undan yuqori yoshdagilarning aholi umumiy sonidagi ulushi					
	1980 y.	1990 y.	2000 y.	2010 y.	2015 y.	1980-2015 yillar farqi
AQSh	11	12	12	13	14,1	+3,1
Buyuk Britaniya	15	16	16	17	18,1	+3,1
Germaniya	16	15	16	21	20,9	+4,9
Italiya	13	15	18	20	22,1	+9,1
Ispaniya	11	14	17	17	18,3	+7,3
Fransiya	14	14	16	17	18,5	+4,5
Yaponiya	9	12	17	23	26,2	+17,2
Xitoy	5	6	7	8	9,6	+4,6
Xindiston	4	4	4	5	5,8	+1,8
Rossiya	10	10	12	13	13,1	+3,1
O'zbekiston	5	4	4	4	4,4	-0,6

1998-yilda jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi pensionerlar soni ushbu mamlakatlarda yashayotgan voyaga etmagan aholi soniga tenglashdi. Bu ko'rsatkich 2050-yilga kelib butun dunyo mamlakatlarida shakllanishi kutilmoqda.

Aholining umumiy sonida pensionerlar sonining ortishi bilan birga minimal yashash minimumi oshib bormoqda. Natijada mazkur tizimda davlat pensiya xarajatlarini oshirish va uning daromadlar manbaini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada, Evropa Ittifoqi mamlakatlari tajribalarini keltirish o'rinlidir (2-ilova). Masalan, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya mamlakatlarida o'rtacha umr ko'rish 2,5 yilga (65 yoshdan keyin 1,7 yilga) ko'paygani barobarida istiqbolda pensiya ta'minoti xarajatlarini YaIMga nisbatan Frantsiyada 0,5 f.p.ga, Germaniyada 2,8 f.p.ga va Buyuk Britaniyada 1,5 foiz punktga oshirish nazarda tutilmoqda³². Binobarin, Evropa Ittifoqining qator mamlakatlarida YaIMga nisbatan davlat pensiya ta'minoti tizimi xarajatlari 2009-yilda o'rtacha 9-10 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga borib ushbu ko'rsatkich 12-13 foiz darajasida bo'lishi nazarda tutilmoqda.

³¹ www.undp.uz. sayti ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

³² Скурова А.В. Развитие системы негосударственного пенсионного страхования в России и за рубежом: автореф. к.э.н. – Москва, Всероссийская академия внешней торговли. 2011. – Стр. 25.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, jamg'ariladigan pensiya fondlari aktivlarining asosini qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar tashkil etadi. Xususiy pensiya fondlari pul mablag'larini uzoq muddatga joylashtiradi, xususiy va davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oladi. Xususiy pensiya fondi passiv operatsiyalari asosini korporatsiya va korxonalardan keladigan resurslar tashkil etadi, tushumning 20-30 foizi ishchi va xizmatchilar badallaridan iborat. Ekspertlarning hisob-kitobi bo'yicha qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarning bir foiz oshishi to'lanadigan pensiyalar miqdorini bir necha foiz oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag'lar o'sha qimmatli qog'ozlarni hozirgi real qiymati bo'yicha sotilgandan so'ng fuqarolarga pensiya ko'rinishida qaytariladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli sarmoya etishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjud sharoitda xususiy pensiya fondlari, birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi byudjetning ijtimoiy ta'minot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish etarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirish bir vaqtning o'zida uch yo'nalish: minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o'zining ish beruvchilariga qo'shimcha pensiyani shakllantirish, fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiyani ta'minlash belgilangan. AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Italiya kabi mamlakatlar shu tajribalardan foydalaniladi.

Pensiya ta'minotining xususiylashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarning ichki imkoniyatlarini taqdim etadi. Aynan, moliya sohasida pensiya islohotlariga ehtiyoj va iqtisodiy islohotlarning kengaytirilgan sohasi kesishadi. Kapital bozori rivojlanishi, pensiya fondlari pullarini investitsiya qiladigan moliyaviy dastaklarini taqdim etish uchun juda muhim. Shu tarzda iqtisodiyotga investitsiyalarni yo'naltirish jarayonida davlat, jamg'arilgan va xususiy pensiya ta'minotini moliyalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimlari hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta'minlash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada, pensiya to'lovlari ishlovchilarning nafaqat pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan ish haqidan, balki mehnat faoliyati mobaynida to'langan badallari miqdoriga hisoblangan foizni ifoda etadi. Bir martalik qayta taqsimlashda pensiya tizimidan farqli ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida jamg'arma badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira fondi shakllantiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining qo'llanishi mavjud pensiya tizimidagi kamchiliklarni kamaytirish va uning afzalligini kuchaytirishga yo'naltirilgan. Xorijiy davlatlarda bunday tarkibni umumlashgan uch darajali tizim shaklida tasavvur qilish mumkin:

- davlat nazorati ostida amalga oshiriluvchi umumiy va majburiy pensiya tizimi. Mazkur modelda pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liq, ish beruvchi va yollanma ishlovchidan olinadigan badallarni qayta taqsimlash tamoyili asosida moliyalashtiriladi;

- majburiy jamg'arma tizimi orqali beriladigan va minimal jamg'arma stajini "to'plagan" kishilar uchun davlat byudjetidan foydalanuvchi ijtimoiy pensiya tizimi;

- to'la kapitallashtirish va jamg'arish tamoyiliga asoslangan, individual hisob raqamlarni yuritish orqali amalga oshiriladigan pensiya tizimi.

Demak, ikki holatda ham davlat tizimi oldingidagidek keksaygan shaxslarga minimal pensiya yoki ijtimoiy himoyalash sifatida ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Xorijiy davlatlarida moliyaviy bozorning ma'muriy imkoniyatlari etarli darajada rivojlangan, davlat va jamg'ariladigan pensiya fondi faoliyatini tartibga solish va nazoratni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Hozir bizda ikki xil avlodlar birdamligi va jamg'arma tuzilmalarining tarafdorlari mavjud. Gap shundaki, daromad miqdori kam bo'lgan fuqarolar o'zining barcha daromadlarini iste'mol qilishga majbur bo'lganligi sababli jamg'arish pensiya tizimiga o'ta olmaydi, biroq jamg'arish tizimidan butunlay voz kechish kerak, degan xulosa qilish ham noo'rindir.

Aholining umrguzaronligi, ya'ni umr davomiyligi turli iqtisodiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan taraqqiy etgan

mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va uning samaradorligini saqlab qolgan holda ushbu tizimni qanday tashkil etish va boshqarish asosiy masala hisoblanadi. Shuningdek, ushbu masalada qabul qilingan siyosiy va moliyaviy qarorlar va uning Pensiya fondini rivojlantirishdagi oqibati moliyaviy tizim tuzilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi³³. Rivojlangan mamlakatlar pensiya fondlari professional darajada boshqaruv tajribalariga ega. Taraqqiy etgan davlatlarda pensiya fondlari va ularning aktivlari yirik institutsional investorlar ichida muhim o'rin egallaydi

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'yicha pensiya jamg'armalari aktivlari (90 foizi) uchta yirik taraqqiy etgan davlatlar qo'lida to'plangan. Bular qo'shma shtatlar (75 foiz), qo'shma qirollik (11 foiz) va Yaponiya (8 foiz) davlatlari hisoblanadi. Mazkur davlatlarda pensiya jamg'armalari mablag'larini investitsiyalash taraqqiy etgan bo'lib, bu qisqa va uzoq muddatli investitsiya qo'yilmalari hisobiga pensiya jamg'armasi aktivlarini oshirib boradi³⁴.

Pensiya jamg'armasi aktivlarini xorijiy emitentlar qimmatli qog'ozlariga joylashtirish pensiya fondlari portfelining asosini tashkil qiladi. Pensiya fondi portfelini diversifikatsiya qilish, ya'ni fond mablag'larini turli sohalarga investitsiyalash pensiya fondi daromadlarini oshirish imkonini beradi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda pensiya fondlari mablag'larini investitsiyalash hali uncha taraqqiy etmagan, yirik davlat pensiya fondlari o'z mablag'larini qimmatli qog'ozlarga yo'naltirmayapti. Bundan tashqari, pensiya fondi mablag'larining qimmatli qog'ozlari bozoriga joylashtirilgan miqdori Pensiya jamg'armasi aktivlarining 1 foizini tashkil qilishi mumkin³⁵.

Ta'kidlash joizki, ikki asrdan ko'proq tarixga ega bo'lgan pensiya tizimi ikki sektor tomonidan ta'minlanib kelinmoqda. Bular davlat va xususiy pensiya tizimlaridir. Jahon amaliyotida pensiya tizimini tashkil etishning ikki sof modeli mavjud bo'lib, uni quyidagi jadval orqali ifodalaymiz:

³³ E.Philip Davis. Pension Funds: Retirement-Income Security and Capital Markets: An International Perspective. Print ISBN-13: 9780198293040. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012. – P. 2-3.

³⁴ IMF Working Paper. International Capital Markets. Pension Funds and Emerging Markets. Prepared by Jorge A. Chan-Lau. 2004. International Monetary Fund.

³⁵ IMF Working Paper. International Capital Markets. Pension Funds and Emerging Markets. Prepared by Jorge A. Chan-Lau. 2004. International Monetary Fund.

**Fondlashtirilmaydigan va fondlashtiriladigan
pensiya tizimlari taqqoslamasi³⁶**

Solishtirish mezonlari	PAYGO tizimi (avlodlar birdamligi)	To'liq fondlashtiriladigan (jamg'arib boriladigan)
Moliyalashtirish manbasi	Joriy sug'urta badali joriy pensiya to'lovi uchun sarflanadi	Joriy sug'urta badallari shaxsiy hisob raqamlarda joriy sug'urtalanuvchining o'zi uchun jamg'ariladi
Demografik omil ta'siri	To'g'ridan-to'g'ri funktsional tarzda ta'sir etadi	Ta'sir darajasi deyarli yo'q, zero har kim o'zi uchun o'zi jamg'aradi
Maqsad	Ijtimoiy adolatni ta'minlash	Iqtisodiy samaraga erishish

Dunyoning qariyb 80 ta mamlakatida bu kabi jamg'armalar mavjud. Misol uchun Shimoliy Afrikadagi “Old Age Grant” va Yangi Zelandiyadagi “Superannuation” dasturini misol keltirish mumkin. Tizim qanday ishlaydi? Faraz qilaylik T avlod pensiyaga chiqdi, uning uchun T+1 avlod pensiya to'laydi, T+1 uchun esa T+2 va hokazo. Demak, hech qanday fond yaratilmaydi. Hech kim o'zi uchun to'lamaydi. Kim pensiya fondiga ajratma o'tkazayotgan bo'lsa, demakki u o'zidan oldin pensiyaga chiqqan fuqaro pensiyasi mablag'ining manbai bo'lib qoladi. Biroq ba'zi mamlakatlar shu tizim ostida maxsus investitsiya fondlarini yaratadilar. Misol uchun Ispaniyadagi “Ijtimoiy himoya rezervi”, Fransiya-dagi “Pensiya rezerv fondi”, Kanadaning “Canada Pension Plan” fondlari investitsiyalar orqali shakllangan bo'lsa, AQSh Ijtimoiy himoyasi AQSh G'azna obligatsiyalariga kiritilgan investitsiyalar hisobiga shakllangan.

To'liq fondlashtirilgan dasturda esa, siz o'zingiz uchun kelajakdagi pensiya manbaingizga ega bo'lasiz, ya'ni sizning har bir ajratmangiz (uning ichida ish beruvchining ajratmasi ham qo'shiladi) aniq bir bank yoki shu bilan shug'ullanuvchi tashkilot hisob raqamiga kelib tushadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari – davlat pensiya ta'minoti, majburiy ijtimoiy sug'urta, shaxsiy ijtimoiy sug'urta va boshqalar – qo'llaniladi. Bunda

³⁶ Kasimova G., Botirov A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. 27-b.

“jamg’ariladigan” va “taqsimlovchi” modellar ham bo’lib, asosan, “kombinatsiyalashgan” model amal qiladi³⁷.


Xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQShda pensiya tizimini boshqarish va tartibga solishda pensiya rejaları muhim o’rin tutadi. Davlat va mahalliy pensiya fondlari rejasining kelib chiqish tarixi o’tgan XX asrga borib taqaladi. Byudjet tashkiloti xodimlarini qisman yoki to’liq qamrab olgan davlat va mahalliy pensiya to’lovlari hukumat ishchilari uchun ularning pensiyalarini qoplashning muhim manbasi hisoblanadi va qarilikda ularni moliyaviy ta’minlashda muhim rol o’ynaydi. Davlat pensiya rejalarini boshqarish XX asrning ikkinchi yarmida tobora murakkablashib bordi. Bunday murakkablashib borish quyidagi uch jihatda namoyon bo’ladi:

1. Ko’pchilik davlat va mahalliy pensiya rejaları pensiyalarni moliyalashtirish siyosatida “Pay-as-you-go” tizimidan (bu qayta taqsimlash pensiya tizimi bo’lib, bunda joriy pensiya xarajatlari joriy tushumlar hisobiga qoplanadi) to’liq aktuar moliyalashtirish tizimiga o’tishdi.

2. Pensiya aktivlari boshqaruvi zamonaviy investitsiya menejmenti nazariyalari asosida yanada professionallashtirilgan darajada boshqariladi.

3. Ko’plab davlat pensiya rejasi homiylari 2000 yillar boshidagi fond bozori inqirozi sababli moliyaviy bozorlarda pensiya badallari va hukumat operativ byudjeti bo’yicha bozor o’zgaruvchanligi ta’sirini kamaytirish qadamlarini qo’yishdi.

Jahon amaliyoti tajribalaridan ko’rinadiki, pensiya ta’minoti tizimi uch tizimga ajratilgan. Buni 1.7-rasm orqali ko’rish mumkin.



1.7-rasm. Pensiya ta’minoti tizim³⁸

³⁷ Majidov N., Niyazov M. Pensiya tizimini tartibga solishning xorij tajribasi. “Biznes-ekspert” jurnali, 11-son. 2016. 39-b.

³⁸ Xorijiy tajribalar asosida magistrant tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Taraqqiyot etgan mamlakatlarda pensiya tizimi islohotlari natijasida pensiya fondi aktivlari miqdori o'sib bormoqda va bir vaqtning o'zida ichki bozorda investitsiyalash manbalarini ta'minlamoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, pensiya ta'minoti darajasini ko'paytirish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda nodavlat pensiya tizimini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

I bob bo'yicha xulosa

– Pensiya jamg'armasi bu – aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz qismini pul mablag'lari bilan ta'minlovchi mustaqil moliyaviy organdir. Ushbu jamg'arma: pensiya va bolalar nafaqasini to'lash hamda ularni moliyalashtirishni amalga oshirish uchun markazlashtirilgan holda pul mablag'larini jamlash; respublika va mahalliy darajadagi strategik rejalarni, ayniqsa aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirishda faol qatnashish; o'z-o'zini moliyalashtirish printsiplari va tijorat faoliyati asosida fond mablag'lari miqdorini oshirish kabi vazifalarni bajaradi;

– investitsiyalar makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi, birinchi navbatda, takror ishlab chiqarishni kengaytirish, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, korxona foydasini ko'paytirish va shu asosda boshqa ko'pgina muammolarni ijobiy hal etish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish asosida modernizatsiyalash imkonini beradi;

– taraqqiyot etgan mamlakatlarda pensiya tizimi islohotlari natijasida pensiya fondi aktivlari miqdori o'sib bormoqda va bir vaqtning o'zida ichki bozorda investitsiyalash manbalarini ta'minlamoqda. Pensiya fondlariga investitsiya qilish mazkur sohada raqobatning rivojlanishiga, moliyaviy innovatsiyalarning yaratilishiga, korporativ boshqaruvning yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

II BOB. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanish amaliyotining tahlili

2.1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining tahlili

Bugungi kunda konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibidagi davlat maqsadli jamg'armalari qatoriga Byudjet Kodeksi³⁹ning 36-moddasida nazarda tutilgan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ham kiritilgan.

Pensiya jamg'armasi mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning sug'urta badallari;
- fuqarolarning majburiy sug'urta badallari;
- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy ravishda to'laydigan sug'urta badallari;
- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning belgilangan tartibda ajratiladigan majburiy ajratmalari;
- “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq mablag'lar;
- “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan o'tkaziladigan mablag'lar;
- “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lari;

³⁹ 2014-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan.

– hisoblangan jarimalar summalari (qonun hujjatlariga muvofiq soliq organlarini rivojlantirish Jamg’armasiga undiriladigan summalardan tashqari), sug’urta badallari va ajratmalarning o’z vaqtida to’lanmaganligi uchun penyalar.

Quyidagi 2.1-jadval ma’lumotlaridan ko’rish mumkinki, Pensiya jamg’armasiga kelib tushadigan ish beruvchilardan majburiy ajratmalar ularning soliq yukini kamaytirish bilan bog’liq siyosati jarayonida hamda ortirilgan mablag’larni oborotiga qo’shib, shu yo’l bilan daromadlarini oshirishi va ish o’rinlarini shakllantirishi bilan bog’lanadi. Ishlovchilar va yuridik shaxslar tovar oborotidan olinadigan majburiy me’yorlar ulushi o’sish sur’atiga ega.

2.1- jadval

Pensiya jamg’armasiga to’lanadigan majburiy to’lov tariflari dinamikasi (%)⁴⁰

Yillar	Pensiya jamg’armasiga ish beruvchilarning yagona ijtimoiy to’lovi	Fuqarolarning majburiy sugurta badali	Tovar (ish, xizmatlar) qiymatidan majburiy ajratmalar
2001	40	2,5	0,7
2002	40	2,5	0,7
2003	37,2	2,5	0,7
2004	33	2,5	0,7
2005	31	2,5	0,7
2006	25	2,5	0,7
2007	24	2,5	0,7
2008	24	2,5	1,0
2009	24	3,5	1,0
2010	25	4,0	1,5
2011	25	4,5	1,6
2012	25	5,5	1,6
2013	25	6,0	1,6
2014	25	6,5	1,6
2015	25 (15 ⁴¹)	7,0	1,6
2016	25 (15 ⁴²)	7,5	1,6
2017 prognoz	25 (15)	8,0	1,6

⁴⁰ www.pfru.uz. sayti ma’lumotlari.

⁴¹ Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo’jaliklari uchun yagona ijtimoiy to’lov stavkasi (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli “2015 yil uchun O’zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va byudjet parametrlari to’g’risidagi” Qarorlari).

⁴² Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo’jaliklari uchun yagona ijtimoiy to’lov stavkasi (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli “2016 yil uchun O’zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va byudjet parametrlari to’g’risidagi” Qarorlari).

Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi maxsus huquqiy-me'yoriy hujjat bilan belgilangan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat⁴³:

a) majburiy to'lovlar va badallar: belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari (yagona ijtimoiy to'lovning 24,8 (14,8) foizli to'lovi) (2.2-jadval); alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari; fuqarolarning sug'urta badallari; jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari; majburiy ajratmalar.

2.2-jadval

2016-yilda ish beruvchilarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi⁴⁴

Ko'rsatkichlar	Ajratmalar miqdori, %da
Yuridik shaxslar mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	25*
Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo'jaliklari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	15**

*) Yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov summasi davlat maqsadli fondlari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o'rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

Byudjetdan tashqari Pensiya Fondi	- 24,8
Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat Fondi	- 0,1
Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi	- 0,1
**Byudjetdan tashqari Pensiya Fondi	- 14,8
Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat Fondi	- 0,1
Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi	- 0,1

b) boshqa to'lovlar: mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi; texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar,

⁴³ "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1993-yil 3-sentyabr (keyingi yillardagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda).

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli "2016 yil uchun O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va byudjet parametrlari to'g'risida"gi Qarori asosida tuzildi.

xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari; "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan pensiya olish huquqiga ega bo'lgan kamida yigirma yillik ish staji bo'lgan ayollar ellik to'rt yoshga to'lganda tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari; dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari; hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Jamg'arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish fondiga undiriladigan summalardan tashqari); yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan davlat byudjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar.

Majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarni o'tkazish Pensiya jamg'armasi daromadlarining belgilangan tasniflariga muvofiq tushumlarning har bir turi bo'yicha Pensiya jamg'armasining banklardagi tegishli hisob raqamlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Pensiya jamg'armasining daromadlari⁴⁵: yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari; fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga sug'urta

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 52-I-son) 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan.

badallari; Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar; boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Pensiya jamg'armasining daromadlarida asosiy tushum ish haqi fondiga nisbatan ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lovning (24,8%) hissasiga to'g'ri kelib, yillar davomida uning jami daromaddagi tutgan ulushi pasayish tendensiyasiga ega.

2.3-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari ijrosi⁴⁶

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil	
	mlrd. so'mda	jami daromad-larga nisba-tan foizda	mlrd. so'mda	jami daromad-larga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	jami daromad-larga nisbatan foizda	mlrd. so'mda	jami daromad-larga nisba-tan foizda	mlrd. so'mda	jami daromad-larga nisbatan foizda
Jami daromadlar	8065,4	100,0	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0
Yil boshida kutilayotgan qoldiq	280,1	3,5	602,2	5,8	1067,3	8,2	2592,0	15,6	2568,3	14,2
Daromadlar	7785,3	96,5	9699,9	94,2	11946,4	91,8	13965,0	84,3	15545,0	85,8
Shu jumladan:										
Mehnat haqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar	4799,2	59,5	5907,4	57,3	7299,5	56,1	8324,2	59,6	9474,0	52,3
Fuqarolarning ish haqi fondidan majburiy sug'urta badali	1110,2	13,8	1482,7	14,4	1877,2	14,4	2463,8	17,6	3235,0	17,9
Tovar (xizmat, ish) larning sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1401,5	17,4	1591,3	15,4	1933,0	14,9	2063,8	14,7	1527,0	8,4
Soliqsiz tushumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	18,0	0,1
Boshqa daromadlar	474,4	5,9	718,5	7,0	836,7	6,4	1113,1	8,0	1291,0	7,1

Aksincha, fuqarolarning ish haqlari hisobidan ajratiladigan yagona ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma (7,5%) hissasi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi aholining ish bilan bandligining oshish sur'atlari va o'tgan yillarga nisbatan ajratma stavkalarining oshishi hisoblanadi.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr PQ-1675-sonli, 2012-yil 25-dekabr PQ-1887-sonli, 2013-yil 25-dekabrda PQ-2099-sonli, 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli, 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli Qarorlari asosida vfgistrant tomonidan tuzildi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida pensiya tizimi sohasida ham bir muncha ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Qonunchiligimizda bir qancha o'zgarishlar amalga oshirildi va Pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanish manbalari aniq va ravshan qilib belgilandi. Natijada, 2011-yildan boshlab Pensiya jamg'armasi profitsit bilan ijro qilina boshlandi. Daromad manbalari tarkibida korxona va tashkilotlarning ish haqi jamg'armasidan to'laydigan ajratmasi eng yuqori ulushga ega bo'lishi Pensiya jamg'armasi daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu ko'rsatkich, yuqoridagi tahlil ma'lumotlariga asosan yildan-yilga jami daromad tarkibidagi ulushi kamayib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Daromad manbalarini tarkibida ishchilar ish haqisidan ajratmaning foiz stavkasi yildan-yilga o'smoqda, ya'ni bu ko'rsatkich 2008-yilda 2,5 foizni, 2015-yilda esa bu ko'rsatkich 7,0 foizni, 2016 yilda 7,5 foizni va 2017 yilda 8,0 foizni tashkil qilmoqda. O'rtacha oylik ish haqining ham yildan-yilga oshishi ham daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirishda yuz berayotgan muammolarni bartaraf etish hamda daromadlarining o'z vaqtida korxona va tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida to'lanmayotganligini bartaraf etish yo'nalishlarini aniqlash muhim masaladir.

2.4-jadvalda Pensiya jamg'armasi xarajatlarining 2012-2016-yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida pasayish xususiyatiga ega. Aksincha, Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish sur'atiga ega. Agar 2012-yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 6,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 14,9 foizni tashkil etgan. Bu esa oxirgi yillarda Hukumatimiz tomonidan davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag'laridan samarali foydalanish tizimidagi say'i-harakatlari natijasidir.

2.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasining xarajatlari⁴⁷

t/r	Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil	
		mlrd. so'mda	jami xarajat-larga nisba-tan foizda	mlrd. so'mda	jami xarajat-larga nisba-tan foizda	mlrd. so'mda	jami xarajat-larga nisba-tan foizda	mlrd. so'mda	jami xarajat-larga nisba-tan foizda	mlrd. so'mda	jami xarajat-larga nisba-tan foizda
	Xarajatlar jami	8065,4	100,0	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0
1.	Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari	7246,0	89,8	9097,9	88,3	11191,9	86,0	12838,1	77,5	14779,6	81,6
2.	Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari	290,9	3,6	317,4	3,1	426,6	3,3	474,8	2,8	484,3	2,7
3.	Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	12,8	0,2	20,5	0,2	29,1	0,2	105,2	0,6	152,1	0,8
4.	Boshqa xarajatlar	1,8	0,02	2,1	0,02	2,4	0,02	2,8	0,02	3,0	0,02
6.	Yil oxirida qoldiq mablag'lar	513,9	6,4	864,2	8,4	1363,7	10,5	3136,1	18,9	2694,3	14,9

Qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar ulushi yildan-yilga kamayish tendentsiyasiga ega (2012-yildagi 0,2 foizdan 2016-yilda 0,8 foizni tashkil etgan). Buning asosiy sababi pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq bo'lib, avval Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan bir qator nafaqa va to'lovlarning davlat byudjetiga o'tkazilishi Pensiya jamg'armasiga pensiyalarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan bosimni birmuncha kamaytirdi.

Pensiya jamg'armasining Toshkent shahar boshqarmasida 2016-yil 1-yanvar holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni 310521 kishi bo'lgan, ulardan 298259 kishi, ya'ni 96% pensiya oluvchilar, qolgan 4% nafaqa oluvchilarga to'g'ri

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr PQ-1675-sonli, 2012-yil 25-dekabr PQ-1887-sonli, 2013-yil 25-dekabr PQ-2099-sonli, 2014-yil 4-dekabr PQ-2270-sonli, 2015-yil 22-dekabr PQ-2455-sonli Qarorlari asosida magistrant tomonidan tuzildi.

kelgan. 2017-yil 1-yanvar holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni 316839 kishi, 2015-yilga nisbatan 6318 nafarga ortgan, ya'ni o'sish darajasi 102%. 2016-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Toshkent shahridagi ishlovchi va ishlamaydigan pensiya va nafaqa oluvchilarga jami 1775,3 mlrd. so'm Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. Jumladan, 1602,1 mlrd. so'mi ishlamaydigan pensionerlar uchun, 29,7 mlrd. so'mi bolalikdan nogironlik nafaqasi oluvchilarga, 4,7 mlrd. so'm ishlamaydigan fuqarolar uchun oylik kompensatsiya to'lovlariga, 2,1 mlrd. so'm ishlamaydigan fuqarolarga bola tug'ilganligi uchun bir marta to'lanadigan suyunchi puliga, 128,1 mlrd. so'm ishlovchilarga pensiya to'lovi uchun, 1,0 mlrd. so'm ishlovchilarga oylik kompensatsiya to'lovi uchun va 7,4 mlrd. so'm ishlovchilarga suyunchi puli to'lovi uchun oyma-oy moliyalashtirildi.

2.5-jadval


Pensiya jamg'armasining Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan tayinlangan va to'langan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'g'risida ma'lumot⁴⁸

№	Pensiya va nafaqa oluvchilar toifasi	Kishi, soni		Yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar	
		2015-yil	2016-yil	2015-yil	2016-yil
I.	Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni-jami	310521	316839	20562	20116
1.	Pensionerlar-jami, shundan	298259	303700	19117	18462
1.1	Yoshga doir pensiyalar	256823	263293	16962	16270
1.2	Nogironlik bo'yicha pensiyalar	31832	30988	1277	1309
1.3	Boquvchisini yo'qotgan oilalarga beriladigan pensiyalar	9604	9419	878	883
II.	Ijtimoiy nafaqa oluvchilar-jami,	12262	13139	1445	1654

Tahlil obyektimiz bo'lmish Toshkent shahar Yunusobod tumanida bugungi kunda Pensiya jamg'armasi hisobidan pensiya va ijtimoiy nafaqalar oluvchilar soni 2017-yil 1-yanvar holatiga pensiya va nafaqa oluvchilar soni 44027 nafar kishi tashkil qilgan. 2016-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatqich 43402 nafar kishi bo'lgan,

⁴⁸ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzildi.

ya'ni 2015-2016-yillarda Yunusobod tumanida 625 nafar kishiga ko'paygan (-rasm).



2.1-rasm. 2017-yil 1-yanvar holatiga byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tumani tomonidan tayinlangan va to'langan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'g'risida ma'lumot, hafar⁴⁹

2016-yilda Pensiya jamg'armasining Yunusobod tuman bo'limi tomonidan 2629 nafar kishiga yangi pensiya tayinlandi. Shu davrida vafot etgan pensiya va nafaqa oluvchilar soni 1491 nafar kishi tashkil qildi.

Yuqoridagi tahlillar, o'z navbatida, davlat ijtimoiy siyosati negizida qariya va keksa yoshdagi aholi, boquvchisini yo'qotgan oilalar, nogiron fuqarolarni ijtimoiy himoyasi va ta'minotini amalga oshirish uchun katta miqdordagi davlat sarflari mavjudligidan dalolat bermoqda.

Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatning buzilishini kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

- Pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanishida korxona, tashkilot va muassasalarda yuzaga kelayotgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarning mavjudligi;

- Pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanishida tumanda faoliyat yuritayotgan korxona tashkilotlarda ish nomalari bo'yicha belgilangan ishchi xodimlarning to'liq qatnashmayotganligi;

⁴⁹ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tumani hisobotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- Pensiya jamg'armasida daromadlarning xarajatlardan kamligi, defitsiti yuzaga kelishiga Pensiya jamg'armasida amal qilayotgan me'yoriy-huquqiy xujjatlarga amal qilinmaganligi va noto'g'ri tayinlangan pensiya turlari hamda fuqarolarga qonunni buzish orqali tayinlangan pensiyalar ortishi sabab bo'lgan;
- pensiya asosini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan tariflarning pastligi;
- muddatidan ilgari to'lanadigan pensiya imtiyozlari, ustamalarni to'lash bilan bog'liq xarajatlar;
- mehnat stajini ozligi;
- Pensiya jamg'armasida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarning bilim saviyasining sayozligi va boshqa omillar sabab bo'lgan.

2.2. Jamg'arib boriladigan pensiya mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish amaliyotining tahlili

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. "Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog'liq bo'lib, to'g'ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbasi bo'lib xizmat qilishi mumkin"⁵⁰.

Respublikamizda 2005-yildan amaliyotga joriy qilingan fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimi iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo'qotish bilan bog'liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi⁵¹.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning maqsadi⁵² – fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning

⁵⁰ Vaxabov A., Oxundedaeva M. Jahon pensiya tizimini rivojlantirish xususiyatlari. "Moliya" ilmiy jurnali. 2014-yil. 1-son. 87-b.

⁵¹ Kasimova G., Sholdorov D. Pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish. Monografiya. – T.: "Star poligraf", 2017. 159-b.

⁵² O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 1-modda.

maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalardan pensiyalarni moliyalashtirilishi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. Jamg'arib boriladigan pensiya iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirib, keksalik chog'ida foydalanish shakl va usullarini yig'indisini o'z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlashdir⁵³.

Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'lari hisoblanadi. Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'laridan iborat.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi. Ta'kidlash joizki, Xalq banki O'zbekiston bank tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bugungi kunda, yurtimizning barcha tuman va shaharlarida bankning 197 ta filiallari, 24 ta minibanklari, 201 ta jamg'arma kassalari, 659 ta maxsus kassalari, 212 ta kommunal kassalari, 182 ta xalqaro pul o'tkazmalari shoxobchalari, 105 ga yaqin infokiosk va bankomatlari, 27800 ga yaqin terminallari mijozlar uchun xizmat ko'rsatib kelmoqda⁵⁴. Bank kapitalining o'sishi bankning barqarorligini ta'minlaydi hamda mijozlarning yangi loyihalarini moliyalashtirish uchun zamin yaratadi. Xalq banki o'z faoliyati barqarorligini ta'minlash, aholi ishonchini mustahkamlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng


⁵³ Kasimova G., Botirov A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: "Tamaddun", 2015. 16-20-b.

⁵⁴ www.xb.uz. sayti ma'lumotlari.

qo'llagan holda, zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelmoqda. Xususan, erishilgan natijalar misolida to'xtaladigan bo'lsak, 2016-yilda bankning jami kapitali 597,7 mlrd. so'mni, ustav kapitali esa 299,0 mlrd. so'mni, bank aktivlari 4695,3 mlrd. so'mni, kredit portfeli esa 2521,8 mlrd. so'mni tashkil etdi⁵⁵.

Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining alohida hisobini yuritadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini olish huquqiga ega (2.2-rasm).




2.2-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi⁵⁶

⁵⁵ <https://www.xb.uz>. sayti ma'lumotlari.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlashdir. Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'lari hisoblanadi. Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'laridan iborat. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochadi.

Xalq banki tomonidan fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:



2.3-rasm. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari⁵⁷


Qonun hujjatlarida belgilanganidek, Xalq banki fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimida yig'ilgan mablag'larni markazlashtirilgan holda uzoq muddatli aktivlarga investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirib kelmoqda.

Ma'lumki, Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larga har yili foizlar pul qadrsizlanishini hisobga

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son. 11-modda.

olgan holda qo'shib berilmoqda. Bundan tashqari, mijozlar ish haqlarining bir qismini ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo'naltirishlari mumkin. Bunday hollarda ushbu mablag'larga "O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, daromad solig'i solinmaydi. Pensiya yoshiga etgan keksa yoshdagi fuqarolar har oyda olinadigan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda birdaniga yoki qisman olish yo'li bilan hisobvaraqlaridagi mablag'larni Xalq banki filiallaridan olishmoqda.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ishtirokchilarining majburiy badallari uchun 7 foiz miqdorida, ishtirokchilarning ixtiyoriy kiritgan badallari uchun 18 foiz miqdorida foizlar hisoblanib, olingan daromadlar fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari qoldig'iga qo'shib borilmoqda (2.4-rasm).




2.4-rasm. Jamg'ariladigan pensiya tizimidagi mablag'larga foizlar to'lash, foiz hisobida⁵⁸

O'zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat Xalq banki⁵⁹ ning ma'lumotlariga ko'ra, jamg'arib boriladigan pensiya tizimidagi mablag'lar qoldig'i

⁵⁸ DAT "Xalq bank" hisobotlari asosida magistrant tomonidan tayyorlandi.

⁵⁹ Xalq banki aktsiyadorlarining 2015-yil 29-iyundagi yillik umumiy yig'ilishida Bank nomini "O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki"dan "O'zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat Xalq banki"ga o'zgartirish to'g'risida qarori qabul qilindi. Bank Ustaviga tegishli o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida 2015-yil 20-iyulda 25-son bilan ro'yxatga olindi.

o'sish sur'atlariga ega. Jumladan, ushbu ko'rsatkich 2005-yilda 18,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilga kelib, 1526,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan, ya'ni 2015-yilda 2005-yilga nisbatan 80,7 martaga ortgan (2.5-rasm).



2.5-rasm. Jamg'ariladigan pensiya tizimida mablag'lar qoldig'i, mlrd. so'mda⁶⁰

Respublika bo'yicha jamg'arib boriladigan pensiya tizimida yig'ilgan mablag'larning bir ishtirokchiga to'g'ri keladigan o'rtacha miqdori 2010-yilda 59,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda esa ushbu ko'rsatkich 191,7 ming so'mni tashkil etadi. Ma'lumot uchun, 2015-yilda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimidan 9 million 256 ming 100 nafar fuqaro foydalangan.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining ijrosini o'rganish davomida o'z echimini kutayotgan masalalarga ham e'tibor qaratish zarur. Qonunning 13-moddasida ish beruvchi tomonidan majburiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish, ularni yuritish tartibiga rioya qilish, badallarni to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni moliya, davlat soliq xizmati organlari va Halq banki tomonidan amalga oshirilishi belgilangan bo'lsada, ushbu organlar orasida o'zaro hamkorlik lozim darajada yo'lga qo'yilmagan. Davlat soliq organlari tomonidan qonunning 13-moddasida belgilangan talab qonun ijrosi ustidan nazorat etarli darajada tashkil etilmagan. Halq

⁶⁰ DAT "Xalq bank" hisobotlari asosida magistrant tomonidan tayyorlandi.

bankining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari holati to'g'risida fuqarolarni har yili xabardor qilib borish majburiyati belgilangan bo'lib, bu borada tegishli xabarnoma jo'natilmaslik holatlari ham mavjud.

Shu bilan birga, joylarda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining faoliyat ko'rsatishi masalasi yuzasidan xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va buxgalterlari bilan tizimli ravishda seminarlar o'tkazishga, qonunning afzalliklari va mexanizmlarini aholiga tushuntirishga etarli darajada e'tibor qaratilishi kerak. Respublikamizda qonun ijrosi bo'yicha aniqlangan muammolar muhokama etilib, ularni bartaraf qilishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Aholining bankka ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida saqlangan mablag'larga foizlarni kunlik hisoblanishini yo'lga qo'yish hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarining yillik harakati to'g'risidagi xabarnomalarni elektron tizimlar orqali ma'lumotlar berilishini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar hal qilinishi kerak.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanmaydi. Halq banki jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining alohida hisobini yuritadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin⁶¹.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Halq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi⁶². Respublikamizda jamg'arib boriladigan pensiya badallarini

⁶¹ Kasimova G., Botirov A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: "Tamaddun", 2015. 26-27-b.

⁶² Kasimova G., Sholdorov D. Pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish. Monografiya. – T.: "Star poligraf", 2017. 145-b.

kirituvchilar Halq banki filialiga jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak.

Fuqarolarning shaxsiga oid ma'lumotlar bilan bog'liq barcha o'zgarishlar: mehnat shartnomasi tuzilganligi yoki bekor qilinganligi, pasportdagi ma'lumotlar hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma'lumotlar o'zgarganligi to'g'risida xabar qilishlari shart. Ish beruvchilar shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o'z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006-yil 7-oktabrdagi 88-son va 282-v-son Qarorlari bilan "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi⁶³.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari quyidagi obyektlarga joylashtirilishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlariga;
- ipoteka obligatsiyalariga;
- amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan va listingdan o'tgan korporativ qimmatli qog'ozlarga;
- banklardagi milliy va chet el valyutasidagi muddatli depozitlarga;
- qonunchilikda belgilangan, muvofiqlashtiruvchi Kengash qarori bilan har bir holat uchun alohida tasdiqlangan va Nizomning 27-bandi talablariga javob beradigan boshqa obyektlarga.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining qo'shma qaroriga asosan "Jamg'arib boriladigan

⁶³ Kasimova G., Sholdorov D. Pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish. Monografiya. – T.: "Star poligraf", 2017. 146-b.

pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini samarali joylashtirishni tashkil etish, Xalq bankining jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish bo'yicha majburiyatlari, Xalq bankida jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish obyektlariga qo'yiladigan talablar, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olinadigan mablag'larni taqsimlash qoidalari o'z ifodasini topgan. Nizom O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, jumladan moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibini belgilab beradi.

Mazkur Nizomga asosan, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari va mablag'larni joylashtirish tushunchalari quyidagicha izohlab berilgan. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari – Xalq bankidagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamlanadigan mablag'lar yig'indisidir. Mablag'larni joylashtirish – jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirishda foydalanish.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi majburiyatlarini joylashtirish tartibini ko'rib chiqamiz:

- jamg'arib boriladigan pensiya badallari shaklida o'tkazilgan mablag'lar Xalq banki filiali tomonidan maxsus tranzit hisobraqamida hisobga olinadi va keyinchalik Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan 22628 – "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqdagi mablag'lar" balans hisobraqamida jamlanib boriladi;

- Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan jamlangan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining umumiy summasiga hamda kalendar yil davomida jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarining mo'ljallangan

hajmidan kelib chiqqan holda joylashtirish uchun yo‘naltiriladigan bo‘sh mablag‘lar hajmi belgilanadi;

- Xalq banki filiallarida maxsus hisobvaraqlardagi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari qoldig‘i jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan bir oy davomida amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan to‘lovlar summasidan kam bo‘lmasligi lozim;

- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirish Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan tasdiqlangan kvotalarga muvofiq Xalq banki tomonidan amalga oshiraladi;

- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini obyektlar bo‘yicha joylashtirish kvotalari har chorakda Muvofiqlashtiruvchi Kengash qarorlari bilan tasdiqlanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsion yo‘nalishida foydalanishda mavjud bo‘lgan risklarni kamaytirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

- kredit tashkilotining faoliyat olib borish bo‘yicha lozim bo‘lgan kasbiy tajribaga egaligi;

- aktivlarning minimal miqdori, tarkibi va strukturasi bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy faoliyatning amalga oshirish tajribasiga ega ekanligi;

- kredit tashkilotining yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt xususiy kapitalining minimal miqdori;

- korporativ qimmatli qog‘ozlar emitentlarining rentabelligi, moliyaviy barqarorligi, ish yuritish va bozordagi faolligi hamda amaldagi qonunchilik va Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan belgilangan boshqa talablarlar.

2.3. Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan investitsion maqsadlarida foydalanishning xorij tajribalari tahlili

Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari byudjeti va uni shakllantirish, pensiya rejalarini moliyalashtirish xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mablag‘larni

jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga to'plash sezilarli miqdorda investitsiya resurslarining to'planishiga olib keladi. Islohotni amalga oshirishning asosiy yo'nalishi esa mablag'larni jamg'arma hisobraqamiga to'plash orqali mablag'lardan investitsion daromad topishda foydalanishidir.

Majburiy davlat pensiya fondlarini boshqarish tarkibini tartibga solishning jahon tajribasiga nazar solsak, tartibga solish quyidagi yo'nalishda olib boriladi⁶⁴:

- pensiya fondlarining institutsional shaklining tartibga solinishi;
- pensiya fondlarining samarali ishlashini ta'minlovchi maqsad va mezonlarni aniqlash orqali fondning moliyaviy faoliyatini tartibga solish;
- pensiya fondlarining investitsion portfellari tuzilishini tartibga solish.

Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari faoliyatini tartibga solishda ularning tashkiliy-huquqiy shakliga qarab belgilanadi. Jamg'arish elementi mavjud bo'lgan pensiya tizimi faoliyati ikki asosiy tamoyilga ega:

- belgilangan to'lov tizimi (defined benefit). Bu tizim ishtirokchisi pensiya yoshiga yetganda ma'lum bir belgilangan miqdorda pensiya olishi kafolatlanadi. Bu miqdor ish bilan bandlik davri va oylik ish haqi miqdorlariga asoslangan aktuar formulalar orqali hisoblab chiqariladi;

- belgilangan badal tizimi (defined contribution). Investitsion portfel daromadliligidan kelib chiqib aniqlanadigan va pensiya tizimiga to'langan badallar hajmiga bog'liq holda pensiya miqdori aniqlanadi.

Davlat pensiya rejasini boshqarish masalasini muhokama etish terminologiyasi murakkab tuyulishi mumkin. Pensiya tizimlari, pensiya rejalari va pensiya fondlari tushunchalari o'zaro bog'liq tushunchalar sifatida foydalaniladi. Texnik ma'nosiga ko'ra ushbu uchta termin farqli ma'nolarga egadir⁶⁵.

Pensiya rejasi bu istalgan ishtirokchilar uchun ko'pgina imtiyozlarni beruvchi pensiya dasturlariga taa'lluqlidir. Kamida pensiya rejalari uch muhim belgilarga ega: ishtirokchilar kimligi, qanday va qay darajada pensiya to'lovlari taklif etilishi va ushbu imtiyozlarni moliyalashtirilishi uchun kim javobgar

⁶⁴ <http://www.old.rcb.ru>. sayti ma'lumotlari.

⁶⁵ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0 th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 11.

ekanligidir. Pensiya rejasi, shuningdek, homiy rejasiga ham ega bo'lishi lozim. Davlat sektorida pensiya rejasini tuzgan davlat tarmog'i, ya'ni davlat va mahalliy hukumat, maktab okrugi yoki maxsus tuman reja homiysi bo'ladi. homiy hukumat har bir guruh xodimlariga turli imtiyozlar jamlanmasi bilan bir nechta pensiya rejalarini taklif etishi mumkin.

Pensiya fondi – o'zining mohiyatiga ko'ra, pensiya rejalarini asosida jamlanadigan moliyaviy aktivlarni boshqarish muassasasi hisoblanadi. Pensiya fondi to'plangan moliyaviy resurslarni pensiya rejalarini a'zosi manfaatlarini uchun foydalanishi va ularni kapitalizatsiyasini amalga oshirishi mumkin. Har qanday pensiya fondlari aynan bir pensiya rejasiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim.


Kanada pensiya fondlari aktivlari kanadaliklar uchun daromad manbai hisoblansa, jahon iqtisodiyotida mazkur fondlar aktivlari investitsion kapital sifatida e'tirof etiladi. Kanada pensiya ta'minoti tizimi Kanada moliya tizimi jami kapitalining qariyb 15 foiziga egalik qiladi. Kanada pensiya ta'minoti tizimida faoliyat olib borayotgan pensiya fondlari, xususan yirik pensiya fondlari hisoblangan katta sakkizlik pensiya fondlari mamlakat ichki iqtisodiyotida pensiya fondlari investitsion kapitalining 2/3 qismiga egalik qilib, ular 1 trln. Kanada dollaridan ziyod investitsion mablag'ga ega bo'lgan fondlar hisoblanadi⁶⁶. Mazkur fondlarning mamlakat iqtisodiyotiga uzoq muddatli investitsiyalarni kiritish strategiyasining amalga oshirilishida o'rni beqiyos hisoblanib, ular investitsion bozorda ham muhim ahamiyat kasb etadilar. Katta sakkizlik fondlariga quyidagilar kiradi: the Canada Pension Plan Investment Board (CPPIB); Caisse de dépôt et placement du Québec (CDPQ); the Ontario Teachers' Pension Plan (OTPP); the British Columbia Investment Management Corporation (bcIMC); the Public Sector Pension Investment Board (PSPB); the Alberta Investment Management Corporation (AIMCo); Ontario Municipal Employees Retirement System (OMERS) va the Healthcare of Ontario Pension Plan (HOOPP). Katta sakkizlik qatoriga kirgan ushbu fondlarning investitsion aktivlari hajmi 64 mlrd. dollardan 265 mlrd. AQSh

⁶⁶ Vaxabov A.V., Baxtiyorov B.B. Kanada pensiya fondlarining moliyaviy siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezslar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 159-160-b.

dollarigacha bo'lgan miqdorda shakllangan. Ushbu fondlarning barchasi dunyodagi katta pensiya fondlari 100 taligi va ularning uchasi katta 20 talik qatoriga kiradi⁶⁷.

2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan so'ng pensiya fondlari o'zlari egalik qilayotgan aktivlar ustidan yillik nazoratni o'rnatdilar. Bunga ko'ra, ular pensiya fondlari daromadlari va xarajatlari, jumladan, investitsion kapitalning maqsadli yo'naltirilishini kuchli nazorat ostiga oldilar. Natijada, 2015-yil oxiriga kelib ularning investitsion aktivlari hajmi 1,5 trln. Kanada dollariga teng bo'ldi⁶⁸.

Jahonda davlat pensiya fondlarini moliyalashtirishning byudjet va ijtimoiy sug'urta usullari farqlanadi. Byudjet usulida pensiya to'lovlarini moliyalashtirish byudjetga soliqlar hisobidan shakllantirilgan mablag'lardan qoplanadi. Ijtimoiy sug'urta usuli juda keng tarqalgan bo'lib, bu usulda pensiya fondi daromadlari ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan pensiya fondiga to'lanadigan badallar hisobiga shakllantiriladi. Hozirda barcha moliyaviy tuzilmalar qatori pensiya fondlari ham investitsiya faoliyatining asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Fondlar doimiy ravishda investitsiya faoliyatida ishtirok etishadi va katta miqdordagi daromadlarini investitsiya faoliyatidan qo'lga kiritishadi. Aynan shu jihatlarni inobatga olib pensiya fondlari daromadlarini quyidagicha tasniflash mumkin:



2.6-rasm. Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari daromad manbalari⁶⁹

⁶⁷ Vaxabov A.V., Baxtiyorov B.B. Kanada pensiya fondlarining moliyaviy siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 158-159-b.

⁶⁸ Vaxabov A.V., Baxtiyorov B.B. Kanada pensiya fondlarining moliyaviy siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 158-b.

⁶⁹ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0 th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 5-15.

Jahon mamlakatlarida pensiya fondlari daromadlari tizimi bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali tahlil etiladi. Jumladan, ma'lum bir pensiya fondiga ishlovchilar va ish beruvchilar tomonidan to'lanadigan "Majburiy pensiya badallari" stavkalari. 2014-yilda majburiy ijtimoiy sug'urta badallari stavkalari IHTTning 13 ta mamlakatida ish beruvchilar va ishlovchilar uchun xususiy sektorda o'rtacha oylik ish haqining 24 foizi qilib belgilangan. IHTTning qolgan 21 ta a'zosi uchun esa o'rtacha 18 foizni tashkil etgan (3-ilova).

Ba'zi hollarda, pensiya badallari daromadlari turli ijtimoiy ta'minot dasturlariga taqsimlash orqali badallar stavkasi uchun bir xil proporsiyalarda hisoblab chiqariladi. Jami badal odamlarning o'zining badal to'lovlari hisobidan iborat bo'ladi. Agar ushbu uch manbaning qiymati bu yildagi nafaqalar to'lovidan yuqori bo'lsa, pensiya aktivlarining qiymati o'sib boradi. Tarkibiy jihatdan qaraganda, investitsion daromad bu vaqtda aktivlar o'sishining yanada muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

2.6-jadval

Xorijiy mamlakatlarda 2014-yilda o'rtacha har bir ishchi uchun ijtimoiy sug'urta badallari va majburiy xususiy badallar stavkalari⁷⁰

	Davlat sektori		Xususiy sektor		Jami
	Ishlovchi	Ish beruvchi	Ishlovchi	Ish beruvchi	
Avstriya	10,25	12,55			22,8
Chexiya	6,5	21,5			28,0
Estoniya		16,0	2,0	4,0	20,0
Gretsiya	6,67	13,3			20,0
Vengriya	18,5	28,5			47,0
Irlandiya	4,0	10,75			14,75
Norvegiya	8,2	14,1			22,3
Portugaliya	6,4	13,8			20,2
Slovaiya	7,0	20,0			27,0
Sloveniya	15,5	8,85			24,4
Ispaniya	4,7	23,6			28,3
Buyuk	9,05	11,9			20,95
AQSh	6,2	6,2			12,4

⁷⁰ OECD (various years), Taxing Wages; OECD (2013), Revenue Statistics; Social Security Administration, United States (various years), Social Security Programs throughout the World; OECD pension and tax models.<http://dx.doi.org>.

Ba'zi hollarda, pensiya badallari tushumlari turli ijtimoiy ta'minot dasturlari o'rtasida badallar stavklariga bir xil nisbatlarda taqsimlanadi. Jami badallar o'z-o'zini ish bilan ta'minlaydigan ishlovchilar uchun to'lovlarni o'z ichiga oladi.

Pensiya fondi pensiya to'lovlarini moliyalashtirish maqsadida pensiya rejasi badallari orqali shakllantiriladigan, mustaqil huquqiy tuzilma tomonidan tartibga solinadigan mablag'lar jamg'armasidir. Pensiya fondi a'zosi pensiya fondi aktivlariga nisbatan qonuniy va foydali huquqlarga yoki boshqa ba'zi shartnomaviy da'volarga ega bo'ladi.

Davlat pensiya zahira fondlari hukumat yoki ijtimoiy ta'minot institutlari tomonidan "Pay-as-you go" mexanizmiga asosan moliyalashtiriladigan fondning amal qilmaydigan ishlovchilarning davlat pensiya tizimlarini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan zahiralaridir.

1990-yildan 2011-yilgacha bo'lgan davrda yoshga doir pensiya va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari uchun to'lovlarga davlat xarajatlari Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (XHTT) mamlakatlarida YaIMga nisbatan 28 foizga tezroq o'sgan va YaIMdagi o'rtacha ulushi 6,2 foizdan 7,9 foizga ko'tarilgan. Davlat pensiyalari davlatning ijtimoiy ta'minot xarajatlarining aksariyat hollarda eng katta salmog'ini va davlat xarajatlarining o'rtacha 18 foiz ulushini egallaydi.

XHTT mamlakatlari tarkibida Italiya mamlakat milliy daromadining eng katta qismini pensiya xarajatlariga yo'naltiradi, u 2011-yilda YaIMning 15,8 foizini tashkil etgan. Bundan tashqari Evropaning boshqa kontinental mamlakatlari: Avstriya, Fransiya, Gretsiya va Portugaliyada YaIMning 13-14 foizini, Germaniya, Polsha, Sloveniyada 11 foizini tashkil etgan. Davlat pensiya xarajatlari mazkur mamlakatlar davlatning yalpi xarajatlarining 23-30 foizini tashkil etadi.

Islandiya va Meksikada davlat xarajatlarida pensiyaning ulushi mos ravishda 2,1 va 1,8 foizni tashkil etadi. Koreyada esa 2,2 foizdir. Islandiya va Meksikaning aholisi tarkibida yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Koreya pensiya tizimi esa hali etarlicha taraqqiy etmagan, mamlakatda pensiyaning daromadga bog'langan tizimi 1988-yilda joriy etilgan. Yangi yo'nalishli bazis pensiya faqat 2014-yilda joriy

etilgan. Meksikada past xarajatlar ham pensiyalarning jamidagi salmog'i past bo'lishiga sabab bo'ladi (ishlovchilarning faqat 35 foizi). Islandiyada qarilik daromadining ko'pi majburiy kasbiy sohalar orqali ta'minlanadi va qarilik daromadlarini ta'minlashda davlat sektorining ahamiyati nisbatan katta emas. Buning ustiga pensiya yoshi mamlakatda 67 yosh qilib belgilangan.

Avstraliya, Kanada, Irlandiya, Yangi Zelandiyada xarajatlar salmog'ining past bo'lishiga qulay demografik vaziyat ijobiy ta'sir qiladi. Biroq bu xarajatlar o'sishini past bo'lishidagi yagona omil emas, Turkiya XHTT mamlakatlari orasida yosh jihatdan ikkinchi yosh mamlakat bo'lishiga qaramasdan, mamlakat YaIMning 7,5 foizi davlat pensiyalarini to'lashga sarflanadi. Bu ko'rsatkich aholisi salmog'ida 65 yoshdan oshganlar salmog'i ko'proq bo'lgan Buyuk Britaniya, Daniya, Niderlandiya, AQSh kabi mamlakatlarda Turkiyanikidan pastroqdir.

Davlat pensiya xarajatlari 1990-2011-yillar oralig'ida XHTTning oltita a'zosida YaIMning o'sishiga mutanosib ravishda o'sib borgan: Kanada, Islandiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Shvetsiya. Niderlandiya va Yangi Zelandiyada esa davlat pensiya xarajatlari milliy daromad o'sishiga nisbatan pastroq sur'atlarda o'sib borgan. Niderlandiyada bunga asosiy sabab davlat pensiyalariga nisbatan zaruratning qisqarishi va kasbiy pensiyalar ahamiyatining ortib borishi ta'sir ko'rsatgan. Yangi Zelandiyada pensiyaga davlat xarajatlarning 30 foiz qisqarishiga 1992-1994-yillarda bazis pensiya miqdorlarining muzlatib qo'yilishi va pensiyaga chiqish yoshining 60 dan 65 yoshga oshirilishi sabab bo'lgan. Boshqa qisqarishlar esa xususiy va kasbiy pensiya xarajatlarning oshishi hisobiga sodir bo'ldi. XHTTning oltita mamlakatida davlat pensiya sarflari mamlakat milliy daromadiga nisbatan ikki marta tezroq o'sgan (4-ilova).

2011-yilda XHTTga a'zo bo'lgan 26 ta mamlakatda xususiy pensiya tizimlaridan pensiyaga to'langan to'lovlar YaIMning o'rtacha 1,6 foizini tashkil etgan. Bu yoshga doir pensiyalar bo'yicha to'lovlarga o'rtacha davlat xarajatlarning 1/5 qismiga tengdir. 1990-2011-yillar oralig'ida xususiy pensiya to'lovlari miqdorlari YaIMning o'rtacha o'sish sur'atlaridan 38

foizga yuqori bo'lgan va bu borada davlat pensiya xarajatlarini ham ortda qoldirgan.

Xususiy pensiyalar XHTT mamlakatlarining yarmidan kamrog'ida xususiy pensiya tizimining majburiy yoki yarim majburiy ko'rinishda joriy etilishi orqali qamrovining kengayishiga erishilgan. Boshqalarida esa individual (personal) yoki ish beruvchi tomonidan ta'minlanadigan (occupational) ko'rinishdagi ixtiyoriy xususiy pensiyalar keng qamrovga ega.

2011-yilda Niderlandiyada xususiy pensiya to'lovlari YaIMning 5,8 foiziga teng bo'lgan va bu borada eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Davlat pensiya xarajatlari bilan birgalikda esa mamlakat YaIMining 11,2 foizini tashkil etgan. Shvetsariyada esa xususiy pensiya xarajatlari YaIMning 5,0 foiziga teng bo'lgan. Shvetsariyada xususiy pensiya to'lovlari belgilangan minimal miqdorlardan yuqori to'lovlarni o'z ichiga olishiga qaramasdan kasbiy pensiya rejalari majburiy ravishda tashkil etilishi belgilangan.

Kanada, Daniya, Islandiya, Buyuk Britaniya va AQShda xususiy pensiya to'lovlari mamlakat YaIMning 3,3-4,7 foiziga teng. Daniya va Islandiyani istisno qilganda, ularda xususiy pensiyalar ixtiyoriy bo'lishiga qaramay, kasbiy va shaxsiy rejalar qamrovi juda kengdir. Yaponiyada ham (xususiy pensiyalar ixtiyoriy) xususiy pensiyalar xarajatlarining salmog'i yuqori bo'lib, u YaIMning 2,7 foiziga tengdir. Islandiyada jami pensiya xarajatlarida xususiy pensiya xarajatlari 64 foizga teng va bu eng yuqori ko'rsatkichdir.

1990-yillarda Avstraliya, Estoniya, Meksika, Polsha, Slovakiya va Shvetsiya kabi mamlakatlar majburiy xususiy pensiyalarni joriy qilishdi. Ba'zi hollarda, ayniqsa, Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida majburiy va ixtiyoriy xususiy pensiya tizimlarining joriy qilinishi, asosan, yosh ishlovchilarga nisbatan tatbiq etilgan. Ularning aksariyatiga hali pensiya to'lovlari amalga oshirilmagan. Xususiy pensiyalar majburiy

tartibda joriy etilishidan avvalroq ixtiyoriy va yarim-majburiy pensiya tizimi joriy etilgan Avstraliya va Shvetsiya mamlakatlarida xususiy pensiya to'lovlarining aksariyat qismi ixtiyoriy va yarim majburiy pensiya tizimlariga tegishlidir. Barcha hollarda, ixtiyoriy va yarim majburiy pensiya tizim a'zolarining pensiya yoshigacha bo'lgan davri bir necha o'n yillikni o'z ichiga oladi (5-ilova).

Xususiy pensiya to'lovlari sur'atlarining o'sishi yuqori bo'lgan mamlakatlar dastlabki nuqtasida YaIMning 0,5 foiziga teng bo'lgan. Ammo bu erda Daniya, Islandiya, Shvetsiya va Shvetsariya bundan istisnodir. Keyinroq, kasbiy pensiyalar 1985-yildan boshlab majburiy ravishda joriy etilgach, pensiyalarning qamrov darajasi sezilarli darajada ortgan. Yoshga doir pensiyalarning har bir keyingi avlodida xususiy pensiyalarning o'rtacha qamrovi ortib borishi, hozirda xususiy pensiyalar vakolatlarining muntazam oshib borishiga ta'sir qilmoqda.

Ko'plab XHTT mamlakatlari qarilikda xususiy pensiya rejalari orqali qarilik daromadlariga ega bo'lishi uchun qulay soliq siyosatini taklif qilishadi. Tez-tez, individual badallar daromad solig'i majburiyatlaridan to'liq yoki qisman chegirilgan va investitsion qaytimlar to'liq yoki qisman ozod etilgan bo'ladi. Ba'zi mamlakatlar pensiya to'lovlarida soliqdan ozod etishni taklif qilishadi.

II bob bo'yicha xulosa

– 2012-2016-yillarda Pensiya jamg'armasining asosiy daromad manbalaridan biri yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar ekanligini ko'rishimiz mumkin, xususan, mazkur majburiy to'lovdan Pensiya jamg'armasiga tushumlar Pensiya jamg'armasining jami daromadlarining 50-60 foizini tashkil etayotganligini va uning ulushi yildan-yilga kamayish tendentsiyasiga ega bo'lib borayotganligini ko'rish mumkin. Fuqarolardan olinadigan sug'urta badallari esa Pensiya jamg'armasining jami daromadlari tarkibida 2012-yildagi 13,8 foizdan 2016-yilda 17,9 foizga ortgan. Bunday o'zgarishlarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan: 2015-yildan boshlab

yagona ijtimoiy to'lov stavkalarining kichik biznes subyektlari va mikrofirmalar uchun 25 foizdan 15 foizga tushirilishi; fuqarolardan undiriladigan majburiy sug'urta badallari stavkalari oxirgi yillarda oshirilib borilishi; oxirgi yillarda pensiya tizimidagi islohotlar;

– O'zbekistonda demografik omillarning chuqur tahlili asosida aholi yoshi tarkibining o'zgarishlari bo'yicha uzoq yillik prognozlarni ishlab chiqish va shu asosda pensiya tizimini isloh qilish strategiyasini belgilab olish zarur. Bu esa istiqbolda pensiya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosibliklarni oldini olish hamda tizimning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash va shu orqali jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etadi;

– taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib: mamlakatimizda pensiyaga chiqish yoshini ijtimoiy-iqtisodiy omillarni inobatga olgan holda, qadam-baqadam uzaytirib borish lozim. Bu holda turli ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishini oldini olish uchun kech pensiyaga chiqishni rag'batlantiruvchi omillarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. Bunda ishchi yoki xodim ko'proq mehnat qiladi, pensiyaga chiqishi kechiktiriladi hamda mazkur davr mobaynida Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini o'tkazib boradi; O'zbekistonda xususiy pensiya fondlarini tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish zarur;

– Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda: fuqarolarning majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallariga asosiy e'tiborni qaratish zarur. Ularning stavkalarini oshirib borish siyosatini davom ettirgan holda pirovardida hisoblab chiqariladigan pensiya miqdorini ishlovchining to'lagan sug'urta badaliga bog'liqligini ta'minlash; aholini pensiya tizimiga jalb etish qamrovini kengaytirish lozim;

– Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadida mablag'larni investitsiya maqsadlariga safarbar etish zarur. Xorijiy mamlakatlar ushbu amaliyotdan faol foydalanadilar, ya'ni pensiya fondlari mablag'larini moliyaviy aktivlarga (qimmatli qog'ozlar) yo'naltiradi va shu orqali aktivlar miqdorini oshirib, moliyaviy jihatdan barqaror bo'lib boradi.

III BOB. O'ZBEKISTONDA PENSIYA JAMG'ARMASI MABLAG'LARIDAN INVESTITSION MAQSADLARIDA FOYDALANISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanishning ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari

Xorijiy tajribalar guvohlik beradiki, keksalarni moddiy ta'minlash dasturlarini bajarishga imkon yaratuvchi ishonchli moliyaviy ta'minot va boshqaruv mexanizmini yaratish maqsadga muvofiq sanaladi⁷¹. Kanada pensiya fondlarining investitsion faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak, ular jami aktivlarining o'rta hisobda 75 foizidan ortiq qismini investitsion dasturlarga yo'naltirishi ko'zga tashlanadi. 2015-yilning o'zida katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari qariyb 77 foiz aktivini investitsion faoliyatga yo'naltirganligini ko'rishimiz mumkin (3.1-jadval). Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda investitsion jozibadorlikning ortishi, pensiya fondlarining qo'shimcha daromadlarini shakllanishi va o'z navbatida pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligi kafolati bo'lib hisoblanadi.

3.1-jadval

Kanada katta sakkizlik pensiya fondlari aktivlarini boshqarishi, (mln. Kanada dollari hisobida, 2015-y.)⁷²

Pensiya fondlari	Jami investitsion aktivlar	Investitsion faoliyatga yo'naltirilgan aktivlar
CPIB	319	265
CDPQ	291	248
OTPP	263	168
HOOPP	147	64
OMERS	129	80
bcIMC	127	124
PSPB	125	112
AIMCo	100	90
Jami	1,501	1,151

⁷¹ Kasimova G., Sholdorov D. Pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish. Monografiya. – T.: "Star poligraf", 2017. 164-b.

⁷² Vaxabov A.V., Baxtiyorov B.B. Kanada pensiya fondlarining moliyaviy siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 158-b.

Pensiya fondlarining amalga oshirayotgan moliyaviy siyosatiga nazar soladigan bo'lsak, ularning egalik qilayotgan investitsion aktivlari hajmi va ulardan foydalanish jarayonidagi mamlakatdagi boshqa moliyaviy institutlar bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati namoyon bo'ladi. Investitsion dasturlarni moliyalashtirishda Kanadadagi katta sakkizlik pensiya fondlari mamlakatdagi yirik banklar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari mamlakat miqyosida fuqarolarga nisbatan turli pensiya dasturlari xizmatlarini taklif etadilar. Shu bilan bir qatorda ular ish beruvchi va ishchi hodimlarga nisbatan turli imtiyozlarni joriy etish orqali aholi o'rtasida pensiya sug'urtasi badallarini to'lashni rag'batlantirgan tarzda katta salmoqdagi moliyaviy aktivlarga egalik qilib kelmoqdalar.

Katta sakkizlik qatoriga kirgan pensiya fondlari faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak, ular aholiga pensiya fondlari xizmatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda, yuridik shaxslarga ham moliyaviy xizmatlar ko'rsatgan holda turli fondlar faoliyatini tashkil etish orqali ularning ham ma'lum bir darajadagi moliyaviy aktivlarini boshqarib kelmoqdalar.

Kanada pensiya ta'minoti tizimida faoliyat olib borayotgan pensiya fondlari, xususan, katta sakkizlik pensiya fondlariga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- pensiya fondlarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan ichki boshqaruvning mavjudligi;
- investitsion strategiyalarning asoslanganligi, aniqliligi va pensiya fondlari aktivlarining yuqori darajadagi likvidliligi;
- investitsion sharoit, geografik hududlar va aktivlarning turlari bo'yicha diversifikatsiyalashuvi;
- pensiya fondlarining ichki va tashqi bozordagi yuqori raqobatbardoshligi.

2007-2015-yillarda katta sakkizlik pensiya fondlarining muqobil aktivlari hisoblanmish ko'chmas mulk, infratuzilma obyektlari va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 21 foizdan 29 foizga ortib, davlat aktsiyalariga yo'naltirilgan

aktivlar hajmi 30 foizdan 25 foizga qisqardi⁷³. Mazkur davr mobaynida katta sakkizlik pensiya fondlari dunyo bo'yicha yirik investitsion tashkilotlar qatoriga kirdi. Bu esa, o'z navbatida, Kanada pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligi, ularning xizmatlari ishonchliligi darajasining ortishiga olib keladi⁷⁴.

Kanada pensiya fondlarining katta hajmdagi investitsion aktivlarini ko'chmas mulk, infratuzilma obyektlari va davlat miqyosidagi investitsion dasturlarga yo'naltirishiga sabab, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hisoblanadi. Ular ushbu faoliyat orqali o'z daromadlari likvidliligi darajasini ortishiga erishdilar. So'nggi 10 yil mobaynida Kanada pensiya fondlarining o'rtacha rivojlanish ko'rsatkichi 6 foizdan kam sur'atlarda bo'lmadi. So'nggi uch yilda mazkur ko'rsatkich 8 foizni qayd etdi.

Kanada pensiya fondlari yirik banklar bilan hamkorlikda qimmatli qog'ozlar bozorida aktivlarni sotib olish, ularni qayta sotib olish faoliyatini amalga oshirib kelmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida, pensiya fondlarining o'rnatilgan daromad darajasi likvidliligi oshirish dastagi bo'lib xizmat qilmoqda. 2015-yil mobaynida Kanada pensiya fondlari jami aktivlarining 15-30 foizi miqdoridagi qismini qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki ularni qayta sotib olish, investitsion dasturlarni qayta moliyalashtirish faoliyatiga yo'naltirdilar.


Rivojlangan mamlakatlarda pensiya fondlari yirik investitsion institutlar qatoriga kiradi. Jumladan, AQSh pensiya fondlarining investitsion dasturlarga yo'naltirilgan aktivlari hajmi 2014-yil oxiriga kelib 14,7 trln. kanada dollarini tashkil etdi. Investitsion aktivlarning ortishiga sabab XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib AQShda xususiy pensiya fondlari faoliyati jadallik bilan rivojlana bordi. Hozirda mamlakatda 700 mingga yaqin pensiya fondlari xususiy dasturlar asosida faoliyat yuritib, mehnat bozorida band bo'lgan ishchi kuchining qariyb 50 foiziga xizmat ko'rsatib kelmoqda⁷⁵.

⁷³ Vaxabov A.V., Baxtiyorov B.B. Kanada pensiya fondlarining moliyaviy siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezslar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 159-160-b.

⁷⁴ Kasimova G., Sholdorov D. Pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish. Monografiya. – T.: "Star poligraf", 2017. 164-169-b.

⁷⁵ Xajibakiev Sh.X. AQSh pensiya fondlarining investitsion siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman tezslar to'plami. 2017-yil 14-mart. –T.: "Iqtisod moliya", 2017. 164-b.


2005-yilda AQSh pensiya fondlari aktivlari hajmi YaIMga nisbatan 95 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilda vujudga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya fondlari faoliyatiga salbiy ta'siri natijasida 59,6 foizga tushib ketdi. 2011-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 71,8 foiz, 2013-yilda 83,0 foiz va 2015-yilda esa 121 foizga teng bo'lganini kuzatishimiz mumkin (3.1-rasm). 2014-yil yakunlariga ko'ra, AQShda pensiya fondlarining aktivlari hajmi bo'yicha davlat jamg'arma fondi (Federal Retirement Thrift Saving Plan – FRTThSP) 422,2 mlrd. AQSH dollari qiymatiga teng moliyaviy resurslarga ega bo'lib, birinchi o'rinni egaladi. Mazkur fondning aktivlari hajmi avvalgi yilga nisbatan 12,6 foizga ortgan. Ushbu fond 2009-yildan buyon AQSh pensiya fondlarining aktivlari hajmi bo'yicha etakchi o'rinni egallab kelmoqda.



**3.1-rasm. AQSh pensiya fondlari aktivlari hajmi dinamikasi
(YaIMga nisbatan foiz hisobida)⁷⁶**

AQShda pensiya fondlarining aktivlari hajmi bo'yicha etakchi beshlik tarkibiga Kaliforniya shtati davlat tashkiloti hodimlari pensiya fondi (California public employees' retirement system – CalPERS), O'quv muassasalari o'qituvchi xodimlari davlat jamg'armasi (California state teachers' retirement system – CalSTRS), Nyu-York shtati pensiya fondi (New-York state common retirement fund – NYSCRF) va Nyu-York shahri pensiya ta'minoti fondlarini (New-York city retirement systems – NYCRRS) kiritish mumkin (3.2-rasm). Mazkur pensiya fondlari AQShda investitsion loyihalarda faol ishtirok etuvchi fondlar hisoblanadi.

⁷⁶ Xajibakiev Sh.X. AQSh pensiya fondlarining investitsion siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 164-165-b.




3.2-rasm. AQShda aktivlar hajmi bo'yicha etakchi fondlar ko'rsatkichlari, 2014-yil, mlrd. AQSh dollarida⁷⁷

Bugungi kunda aksariyat dunyo mamlakatlarida bo'lgani kabi AQShda ham global qarish muammosi kuzatilmoqda. 2015-yilda pensiya yoshidagi aholining bog'liqlik koeffitsienti 19,3 ga teng bo'lgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2030-yilga borib 27,1 ga, 2050-yilda esa 28,9 ga teng bo'lishi kutilmoqda (3.3-rasm).

Mazkur holatni inobatga olgan holda AQSh pensiya fondlari daromadlari hajmini 3,2 foizdan 9,4 foizgacha bo'lgan miqdorda oshirishga qaratilgan pensiya fondlarining har 10 yilga mo'ljallangan strategiyalari qabul qilinib kelinmoqda. Mazkur strategiyalarni qabul qilish va ularni amalga oshirish chora-tadbirlariga mamlakatda 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sabab bo'ldi. Mamlakatda hozirda pensiya fondlari tomonidan 2011-2020-yillarga mo'ljallangan pensiya daromadlar darajasini oshirishga qaratilgan strategiyasi amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiyadagi chora-tadbirlar dasturlarini amalga oshirish orqali AQSh pensiya fondlari daromadlari darajasida kuzatilgan salbiy tendensiya 2012-yildan boshlab ijobiy tendensiyaga ega bo'ldi. 2012-2015-yillarda AQSh pensiya fondlarining umumiy daromadlari hajmining ortish ko'rsatkichida qayd etilgan minimal ko'rsatkich 5,3 foizga teng bo'lgan bo'lsa, uning maksimal chegarasi 13,8 foizga teng bo'ldi. Masalan, 2015-yilda birgina AQSh davlat xizmatchilari pensiya fondining daromadlari hajmi 18,4 foizga ortgan holda, ushbu

⁷⁷ Xajibakiev Sh.X. AQSh pensiya fondlarining investitsion siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 165-166-b.

fondning so'ngi uch yildagi o'rtacha daromadlarining ortishi ko'rsatkichi 10,4 foizga teng bo'ldi.⁷⁸



3.3-rasm. Pensiya yoshidagi aholining bog'liqlik koeffitsienti (65 va undan yuqori yoshdagilarning 15-64 yoshdagi ishchi kuchiga nisbati)⁷⁹

Umuman olganda AQSh pensiya ta'minoti tizimida xususiy pensiya fondlarini jadal rivojlanishi va ularga jamlangan aktivlardan foydalanish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilganligi ushbu fondlarga investitsion dasturlardagi ishtirokini kengayishi, o'z faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida pensiya fondlarining har biri investitsion strategiyalarini ishlab chiqishi va bu orqali pensiya fondlarining daromadlari ko'rsatkichini ortishi bilan bir qatorda, global aholining qarishi muammosi sharoitida ham pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga erishilmoqda.

Yaponiyada aholi qarishi sharoitida pensiya to'lovlari miqdorining jadal oshib borishi va past darajadagi soliq bazasi sharoitida davlat qarzining oshishi pensiya tizimini isloh etishning dolzarbligini kuchaytirmoqda. Pensiya tizimi barqarorligining "Allianz" indeksi bo'yicha Yaponiya 2016-yilda 54 mamlakat tarkibida 46-o'rinni egalladi va pensiya tizimini isloh etishi zaruriyati yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoridan joy oldi⁸⁰.

⁷⁸ Xajibakiev Sh.X. AQSh pensiya fondlarining investitsion siyosati. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. –T.: "Iqtisod moliya", 2017. 165-b.

⁷⁹ Влияние единого социального платежа на занятость и финансовые показатели предприятий в Республики Узбекистан. Аналитическая записка. UNDP Uzbekistan. – Ташкент, 2015. – С. 6, ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan tuzilgan.

⁸⁰ 2016 Pension Sustainability Index. International Pension Papers 1/2016.

Yaponiya hukumati pensiya tizimini isloh qilishni quyidagi yo'nalishlarini ko'rib chiqmoqda: pensiya yoshini oshirish, qoplash koeffitsientini kamaytirish va pensiya badallari stavkasini oshirish.

Yaponiyada Tayanch pensiya tizimiga davlat subsidiyalarini qisqartirish uchun byudjet mablag'larini potentsial tejash imkoniyatlarini baholovchi maxsus islohot yo'nalishlari belgilab olindi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Tayanch pensiya tizimiga byudjet xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari, YaIMga nisbatan, foizda⁸¹

Islohot yo'nalishlari	2020-yildagi bir yillik tejash
Tayanch tizimi bo'yicha pensiyaga chiqish yoshini 67 yoshga oshirish	0,25
Badavlat pensionerlar uchun pensiya to'lovlarini kamaytirish	0,25
Pensiya to'lovlaridan olinadigan daromadlar uchun imtiyozli soliq rejimini bekor qilish	0,25-0,33
Bandlar qaramog'idagi turmush o'rtoqlaridan pensiya badallari undirish	0,25-0,5
Qoplash koeffitsientini 3 foiz punktgacha kamaytirish	0,5
Pensiya badallari stavkasini 1 foiz punktgacha oshirish	0,5
Pensiya badallari stavkasini 1 foiz punktgacha kamaytirish	-0,5

Tayanch tizim bo'yicha pensiya yoshini 2020-yilga qadar 67 yoshga oshirish davlat byudjeti subsidiyalarini YaIMga nisbatan 0,25 foizgacha qisqarishiga olib keladi, deb baholanmoqda. Agar 2030-yilga qadar pensiya yoshi 69 yoshgacha oshirilsa, byudjet xarajatlari YaIMga nisbatan 0,75 foizga qisqaradi.

Yaponiyada umr davomiyligi va pensiya yoshi o'rtasidagi farq boshqa davlatlarga nisbatan yuqoridir. Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 2030-yilga borib ayollar uchun 89,4 yoshga, erkaklar uchun esa 82,4 yoshga etishi kutilmoqda. Milliy pensiya dasturi pensionerlari uchun 2000-2030-yillar davomida agar pensiya yoshi 65 yoshda o'zgarishsiz qolsa, pensiya yoshida kutilayotgan umr davomiyligi 4 yilga ortishi kutilmoqda. Kasbiy pensiya dasturida ushbu ko'rsatkich pensiya yoshining muntazam oshirib borilishi tufayli 2030-yilgacha pasayishi, lekin 2030-

⁸¹ Fayzullaev J.N. Yaponiya pensiya tizimini isloh etish yo'nalishlari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman tezslar to'plami. 2017-yil 14-mart. –T.: "Iqtisod moliya", 2017. 161-b.

yilga kelib milliy pensiya tizimidagi ko'rsatkich bilan teng bo'lishi kutilmoqda⁸². Pensiyaga chiqish yoshini oshirish ishchi kuchining keksa ishchilar hisobiga ortishi va daromadlarning oshishi hisobiga iste'mol xarajatlari ortishi tufayli uzoq muddatli davrda iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pensiya yoshini oshirish soliq yukining yosh va keksa avlod o'rtasida nisbatan adolatliroq taqsimlanishiga olib keladi. Ushbu islohot pensiya badallarini kamaytirish hisobiga ish beruvchilarning ishchi kuchiga bo'lgan xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi va uy xo'jaliklarining ixtiyoridagi daromadlarini oshiradi.

Yaponiyaning 65 yoshdan oshgan aholisi nisbatan sog'lom va mehnat qobiliyatini yo'qotish ehtimoli juda kam bo'lsada, ular pensiya yoshining oshirilishi keksalikdagi qashshoqlikni keltirib chiqarmasligini ta'minlash maqsadida qarilikdagi nogironlik pensiyasi va ijtimoiy yordam dasturlari bilan ijtimoiy sug'urtalanishlari kerak.

Yaponiyada tayanch pensiya to'lovlarining 50 foizi byudjet subsidiyalari hisobidan moliyalashtiriladi. Buning o'rniga subsidiyalar hajmini kam daromadli pensionerlar uchun oshirish va aksincha daromadlari darajasi yuqori (boy) pensionerlar uchun esa kamaytirish maqsadga muvofiq. Bunday holatda davlat byudjeti mablag'lari sezilarli darajada tejalishi mumkin va kam daromadli pensionerlarning o'rtacha pensiya daromadlari rejalashtirilgan darajadan ham oshishi mumkin.

Pensiya badallarini oshirish davlat byudjeti mablag'larining ko'payishiga olib keladi. Tayanch pensiya tizimi pensiya badallarini 1 foizga oshirish badallar umumiy summasini YaIMga nisbatan 2020-yilda 0,5 foizga ortishiga olib keladi va ushbu mablag'lar pensiya tizimini byudjet subsidiyalari hisobidan moliyalashtirishni kamaytirishga yordam beradi. Pensiya badallarining yuqori bo'lishi o'z navbatida mehnat bozorida ishchi kuchi taklifiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda yosh avlodga nisbatan soliq yukining asossiz oshib borishiga olib keladi.

⁸² Fayzullaev J.N. Yaponiya pensiya tizimini isloh etish yo'nalishlari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman tezislari to'plami. 2017-yil 14-mart. –T.: "Iqtisod moliya", 2017. 162-b.

Jahon mamlakatlarida pensiyalarni to'lashning ikki xil manbai farqlanadi: pensiya fondlari va davlat mablag'lari hisobidan to'lovlar amalga oshiriladi. Kelajakda yuz beradigan pensiya to'lovi majburiyatlarini qoplash uchun aksariya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida mustahkam moliyaviy aktivlar to'plangan. 2013-yilda IHTT mamlakatlari pensiya fondlarining aktivlari mazkur mamlakatlar YaIMning o'rtacha miqdorining 83 foizini tashkil etgan. IHTTning 16 mamlakatida davlat pensiyalarini to'lash uchun davlat pensiya zahiralari ham tashkil etilgan. Bu mamlakatlarda davlat pensiya zahiralari YaIMning o'rtacha 20 foizini tashkil etadi.

2013-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, IHTT mamlakatlari pensiya fondlari moliyaviy aktivlari 24,8 trln. AQSh dollarini tashkil etgan. AQSh pensiya fondlari 13,9 trln. AQSh dollarlik moliyaviy aktivlar bilan IHTT jami pensiya fondlari aktivlarining 56,2 foizini egallaydi. Yirik pensiya fondi tizimlari aktivlari bilan boshqa IHTT mamlakatlari: Buyuk Britaniya 2,8 trln. AQSh dollarilik aktiv bilan pensiya fondi bozorining 11,3 foizini, Avstraliya 1,4 trln. AQSh dollari miqdoridagi aktivlar bilan pensiya fondi bozorining 5,8 foizini, Niderlandiya 1,3 trln. AQSh dollari miqdoridagi aktiv bilan pensiya fondi bozorining 5,4 foizini, Yaponiya 1,3 trln. AQSh dollarilik aktiv bilan pensiya fondi bozorining 5,4 foizini, Kanada 1,3 trln. AQSh dollari miqdoridagi aktiv bilan pensiya fondi bozorining 5,1 foizini egallashgan (6-ilova).

2013-yilda IHTTga a'zo davlatlarning to'rttasi pensiya fondi aktivlari mamlakat YaIMdan yuqoriroq ko'rsatkichga ega bo'lgan: Niderlandiya (148,7%), Islandiya (141,2%), Shvetsariya (113,4%), Avstraliya (102,2%), bundan tashqari Buyuk Britaniya (99,6%), AQSh (83,2%)lik ko'rsatkich bilan IHTT mamlakatlarining o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriroq bo'lgan. Yuqorida nomi keltirilgan mamlakatlarning AQSh va Buyuk Britniyadan tashqari barchasida fondlashtirilgan pensiya tizimi amal qilgan va majburiy va yarim majburiy xususiy pensiya fondlari mexanizmi amal qiladi. IHTT mamlakatlarining 13 ta mamlakatida pensiya fondlari aktivlari YaIMning 20 foizidan ko'proq mablag'ga ega. Boshqa mamlakatlar esa majburiy fondlashtirilgan pensiya tizimini yaqin yillarda joriy

qilishdi. Bu borada Chili eng uzoq yillik tarixga ega va IHTT mamlakatlarining YaIMdagi o'rtacha salmog'idan unchalik past bo'lmagan moliyaviy aktivlarni jamlagan (62,3%).

1990-2000-yillar oralig'ida majburiy xususiy pensiya fondlarini joriy etgan Estoniya va Meksika kabi mamlakatlarda o'sish ko'rsatkichlari ancha ijobiy xarakterga ega. Ularda aktivlar muntazam o'sib bordi va mos ravishda mamlakat YaIMning 9 va 15 foiziga teng bo'ldi. Mazkur ko'rsatkichlar yaqin o'n yillar davomida qarilik daromadlarini to'lab boruvchilarning ko'plab qo'shilishi va ko'proq badallar to'lanishi hisobiga oshib boradi.

“Pay-as-you go” tizimiga asosan moliyalashtiriladigan davlat pensiya tizimlarida bir muncha ortiqcha mablag'lar hosil bo'ladi. Davlat pensiya zahirasi fondlari aholining umr ko'rish yoshi ortib borishi hisobiga davlat xarajatlariga tushadigan og'irlikni engillashtirishga ba'zi davlat pensiya tizimlarining kelajakda moliyalashtirishda asosiy rolni o'ynashi kutiladi.

2013-yilning oxirigacha davlat pensiya zahira fondlari aktivlari IHTTning 5-6-ilovada keltirilgan 16 ta mamlakatlarida jami 5,3 trln. AQSh dollarini tashkil etgan. Tabiiyki, eng yirik zahira 2,8 trln. AQSh dollari bilan AQSh hissasiga to'g'ri kelgan. Yaponiyaning Pensiya investitsion fondi 1,2 trln. AQSh dollari bilan jamida 23,2 foizni, Koreya, Kanada, Shvetsiya ham to'plagan mablag'lari bilan jamida mos ravishda 7,7; 5,8; 3,1 foizni tashkil etgan.

Milliy iqtisodiyotga nisbatan davlat pensiya zahira mablag'lari IHTT mamlakatlarida YaIMning 19,7 foizni tashkil etmoqda. Koreya milliy pensiya fondi mamlakat YaIMining 29,9 foizi, Shvetsiya 28 foizi, Yaponiya 26,8 foiziga teng miqdordagi moliyaviy resurslarni o'zida jamlagan. Avstraliya, Belgiya, Chili, Yangi Zellandiya va Polshada eng past bo'lgan.

Ba'zi mamlakatlar, xususan, Fransiya va Ispaniya ijtimoiy ta'minot taqchilligini qoplash uchun jamg'armalarning bir qanchasini to'xtatishni boshlaganligiga qaramay aktivlarning bunday to'planishining ortib borishi yaqin yillarda davom etadi. Fransiya Pensiya zahirasi fondi va Irlandiya Milliy pensiya zahira fondi “Pay-as-you go” pensiya rejasini moliyalashtirishni o'zining vakolat

doirasidan chiqargach, ular bundan buyon davlat pensiya zahirasi fondlari hisoblanmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda nodavlat pensiya jamg'armalari yuqori darajada rivojlangan. "Mazkur jamg'armalari dastlab AQSh, Kanada hamda Buyuk Britaniyada shakllangan bo'lsa, XX asrning oxiriga kelib boshqa davlatlarda tarqaldi"⁸³. Nodavlat pensiya jamg'armalari moliyaviy resurslari ham muddati jihatidan uzun moliyaviy resurs hisoblanadi. "Tahlil ma'lumotlari asosan AQShda 2006-yilda nodavlat pensiya jamg'armalari aktivlari YaIMga nisbatan 78,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 51,6 foizga pasaygan. Kanadada ham nodavlat pensiya jamg'armalarining moliyaviy resurslari yuqori bo'lib, lekin tahlil qilingan 2006-2010 -yillarda YaIMga nisbatan mos ravishda 64,9-39,1 foiz atrofida o'zgargan. Germaniyada esa, tahlil qilingan davrda ushbu ko'rsatkichlar 12,9-12,3 foiz atrofida bo'lgan"⁸⁴. Ukraina iqtisodiyotida esa ushbu tashkilotlar 2005 yildan amal qila boshladi.

3.3-jadval

Xorijiy davlatlarda nodavlat pensiya jamg'armalari mablag'larining YaIMdagi ulushi⁸⁵

Davlatlar	2006-yil		2007-yil		2008-yil		2009-yil		2010-yil	
	aktivlar		aktivlar		aktivlar		Aktivlar		Aktivlar	
	mlrd. dol.	YaIM % da	mlrd. dol.	YaIM % da	mlrd. dol.	YaIM % da	mlrd. dol.	YaIM % da	mlrd. dol.	YaIM % da
AQSh	10259,6	78,2	10805,3	78,6	8148,4	57,4	7333,3	51,4	7503,5	51,7
Kanada	781,5	64,9	972,0	76,6	682,6	48,8	534,4	40,3	522,6	39,1
Germaniya	348,1	12,9	418,3	14,8	401,5	13,7	363,4	12,9	362,6	12,3
Polsha	40,7	7,2	57,4	9,4	47,1	7,0	42,5	5,8	40,4	5,1
Ukraina	0,037	0,02	0,061	0,04	0,079	0,06	0,082	0,07	0,11	0,07
Rossiya	19,4	1,1	24,2	1,2	19,5	0,9	18,5	0,9	19,3	1,1

Tahlil uchun olingan mamlakatlarda nodavlat pensiya jamg'armalari aktivlarining YaIMdagi ulushi past darajada qayd etilmoqda. Masalan, 2006-2010

⁸³ Мошенский С.З. Рынок ценных бумаг: трансформационные процессы. Учебное пособие. – М.: "Экономика", 2010. – Стр. 114.

⁸⁴ Axmedov M. Iqtisodiyotda "uzun" moliyaviy resurslar salmog'ini oshirishda nodavlat pensiya jamg'armasining ahamiyati // Moliya. – Toshkent. 2012. №2. 130-b.

⁸⁵ Axmedov M. Iqtisodiyotda "uzun" moliyaviy resurslar salmog'ini oshirishda nodavlat pensiya jamg'armasining ahamiyati // Moliya. – Toshkent. 2012. №2. 130-b.

yillarda Polshada ushbu ko'rsatkich 7,2-5,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, Ukraina va Rossiyada bu ko'rsatkich nisbatan past ekanligini ko'rish mumkin. Agar ushbu davlatlarda 2006-yilda nodavlat pensiya jamg'armalari aktivlarining YaIMga nisbatan ulushi 002-1,08 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yiga kelib, 0,07-1,1 foizga etganini ko'rish mumkin. Tahlil uchun olingan davrning 2006-2007 yillarida barcha mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich o'sish tendentsiyasiga ega. 2008-yilda pasayish tendentsiyasiga ega ekanligi bevosita jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning salbiy oqibatlari bilan bog'lik.

3.2. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini takomillashtirish yo'llari

Pensiya ta'minotini xususiylashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarning ichki imkoniyatlarini taqdim etadi. Aynan, moliya sohasida pensiya islohotlariga ehtiyoj va iqtisodiy islohotlarning kengaytirilgan sohasi kesishadi. Kapital bozori rivojlanishi, pensiya fondlari pullarini investitsiya qiladigan moliyaviy dastaklarini taqdim etish uchun juda muhim. Shu tarzda iqtisodiyotga investitsiyalarni yo'naltirish jarayonida davlat jamg'arilgan va xususiy pensiya ta'minotini moliyalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz iqtisodiyotining moliyaviy mablag'lari Pensiya jamg'armasi ixtiyorida ham to'plangan. Bu mablag'lardan xatarning minimal darajasida maksimal foyda olib, foydalanishni ta'minlanishi zarur. Xatarni pasaytirishning eng ta'sirchan omili esa aktivlarni iqtisodiyotning turli sohalariga investitsiyalashdir.

Jamg'ariladigan pensiya tizimlari hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta'minlash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada pensiya to'lovlari ishlovchilarning nafaqat pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan ish haqidan, balki, mehnat faoliyati mobaynida to'langan badallari miqdoriga hisoblangan foizni ifoda etadi. Bir martalik qayta taqsimlashda pensiya tizimidan farqli ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida jamg'arma badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira

fondi shakllantiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining qo'llanishi mavjud pensiya tizimidagi kamchiliklarni kamaytirish va uning afzalligini kuchaytirishga yo'naltirilgan.

Pensiya fondining investitsion siyosati fond faoliyati barqarorligini ta'minlash, operatsiyalaridan foydani ko'paytirish, xatar darajasini pasaytirish, fond balansi likvidligini ta'minlab turish maqsadlarida fondning portfel investitsiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratiladi. Investitsion siyosat pul mablag'larini fondning moliyaviy ehtyojlarini qondirishga safarbar etadi. Pensiya fondi faoliyatidagi xatar darajasini minimallashtirishda pul mablag'lari kelib tushishi va mablag'lar sarflanishini vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish juda muhim vazifadir. Davriy ravishda, to'lovlarni bajarishi muddatlari etib kelganda fond pul mablag'larining bir qismini portfel investitsiyadan bo'shatib oladi. Bu maqsadda fond investitsiyalarni ham, jalb etilgan mablag'larni ham vaqti va hajmi bo'yicha diversifikatsiyalaydi. Masalan, fond resurslari muddatlariga mos ravishda, portfelni ham mablag'larni shu muddatlarda daromadlarini boy bermasdan portfeldan bo'shatib olishni rejalashtirib shakllantirishi lozim. Soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish maqsadida Pensiya fondi bo'sh pul mablag'larini turli moliyaviy dastaklarga joylashtiradi. Bu dastaklar orasida soliqqa tortilmaydiganlari ham bo'ladi, masalan, davlat obligatsiyalari. Binobarin portfel investitsiyaning bir qismini davlat obligatsiyalaridan shakllantirish soliqqa tortiladigan bazani kamaytiradi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 110-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'liq hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazilishi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini afzalliklari to'g'risida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, ushbu tizim barqaror ishlashi uchun Xalq bankini bosqichma-bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi hamda dasturlari bilan ta'minlash tadbirlarini amalga oshirishni belgilab berildi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006-yil 7-oktyabrdagi 88-son va 282-v-son Qarorlari bilan "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan, moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari quyidagi obyektlarga joylashtirilishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlariga:
- ipoteka obligatsiyalariga:
- amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan va listingdan o'tgan korporativ qimmatli qog'ozlarga:
- banklardagi milliy va chet el valyutasidagi muddatli depozitlarga:
- qonunchilikda belgilangan, muvofiqlashtiruvchi Kengash qarori bilan har bir holat uchun alohida tasdiqlangan va Nizomning 27-bandi talablariga javob beradigan boshqa obyektlarga.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo'yicha Muvofiqlashtirish Kengashi tashkil etildi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash vazifalari quyidagilardan iborat:

- muddatlilik, qaytarishlilik, daromadlilik va diversifikatsiyalash tamoyillari asosida jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish obyektlarini belgilash:
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining har bir joylashtirish obyektiga joylashtiriladigan eng ko'p hajmini aniqlash:
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish obyektlarini risklar bo'yicha guruhlariga ajratish:

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish va investitsiya qilishdan olingan daromaddan Xalq banki oladigan marja miqdorini belgilash va fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga hisoblanadigan foiz stavkasini belgilash.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining qo'shma qaroriga asosan "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini samarali joylashtirishni tashkil etish, Xalq bankining jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish bo'yicha majburiyatlari, Xalq bankida jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish obyektlariga qo'yiladigan talablar, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olinadigan mablag'larini taqsimlash qoidalari o'z ifodasini topgan. Nizom O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, jumladan, moliya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab beradi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi majburiyatlarini joylashtirish tartibini ko'rib chiqamiz: jamg'arib boriladigan pensiya badallari shaklida o'tkazilgan mablag'lar Xalq banki filiali tomonidan maxsus tranzit hisob raqamida hisobga olinadi va keyinchalik Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan 22628 – "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqdagi mablag'lar" balans hisob raqamida jamlanib boriladi; Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan jamlangan jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larining umumiy summasiga hamda kalendar yil davomida jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarining mo'ljallangan hajmidan kelib chiqqan holda joylashtirish uchun yo'naltiriladigan bo'sh mablag'lar hajmi belgilanadi; Xalq banki filiallarida maxsus hisobvaraqlardagi jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lari qoldig'i jamg'arib

boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan bir oy davomida amalga oshirish uchun zarur bo'lgan to'lovlar summasidan kam bo'lmasligi lozim; jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan tasdiqlangan kvotalarga muvofiq Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini obyektlari bo'yicha joylashtirish kvotalari har chorakda Muvofiqlashtiruvchi Kengash qarorlari bilan tasdiqlanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsion yo'nalishida foydalanishda mavjud bo'lgan risklarni kamaytirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: kredit tashkilotining faoliyat olib borish bo'yicha lozim bo'lgan kasbiy tajribaga egaligi; aktivlarning minimal miqdori, tarkibi bilan bog'liq bo'lgan kasbiy faoliyatning amalga oshirish tajribasiga ega ekanligi; kredit tashkilotining yoki xo'jalik yurituvchi subyektni xususiy kapitalining minimal miqdori; korporativ qimmatli qog'ozlar emitentlarining rentabelligi, moliyaviy barqarorligi, ish yuritish va bozordagi faolligi hamda amaldagi qonunchilik va Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan belgilangan boshqa talablar.


Xo'jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadigan boshqa obyektlarga joylashtirishda ularning moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi to'g'risidagi tasdiqlangan auditorlik xulosasi, soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisoboti, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish to'g'risidagi ariza berishdan oldingi 3 yil uchun foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni hamda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish masalasini batafsil ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olingan daromadlarini taqsimlash Nizom bo'yicha quyidagicha amalga oshiriladi: jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olingan daromad Xalq banki oladigan marja summasi chegirib tashlangandan so'ng, har yili yil yakunida fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, ulardagi mavjud bo'lgan qoldiq miqdoriga mutanosib ravishda o'tkaziladi; jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olingan daromad, Xalq banki marjasi

miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan Muvofiqlashtiruvchi Kengash tavsiyasiga asosan dastlab – avans qismi yil boshida 1 fevralgacha, uzil-kesil – dekabrning oxirgi 10 kunligida belgilanadi; jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olinadigan marjani, Xalq banki va filiallari orasida taqsimlash tartibi Xalq banki tomonidan belgilanadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishda jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini joylashtirish va ulardan yanada samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari davlat o'rta muddatli xazina majburiyatlariga, Markaziy bank obligatsiyalariga va iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlariga yo'naltirilmoqda (3.4-rasm).



3.4-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish obyektlari⁸⁶

⁸⁶ Tadqiqot natijalari asosida magistrant tomonidan ishlab chiqilgan.

Bizning fikrimizcha, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya tizimini modernizatsiyalashga qaratilgan tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- qisqa muddatli muammolarini hal etish uchun pensiya tizimining uzoq davrga mo'ljallangan rivojlanish dasturlariga o'zgartirish kiritish shart emas;
- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida to'plangan tajribani demografik inqirozga tayyorgarlik ko'rish uchun qo'llash kerak.
- pensiyani indeksatsiya qilishda inflyatsiya sur'atlariga asoslanish zarur;
- pensiyaga chiqish yoshini oshirish, erkaklar va ayollar uchun bu ko'rsatkichni tenglashtirish lozim;
- pensiyaga erta chiqish imkoniyatlarini kamaytirish kerak;
- davlat pensiyasi qiymatini pasayib borishi to'g'risida axborotni aholiga etkazishi zarur.
- kapitalni jamg'arish va pensiya to'lash bosqichlarida moliya bozorlaridagi tebranishlardan sug'urtalanish samaradorligini oshirish joiz;
- pensiya fondlarini o'z a'zolari uchun ko'proq mablag' ishlab topishi uchun ularni nazorat qilishni kamaytirish zarur;
- fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan choralarni faol qo'llash va inflyatsiya darajasiga nisbatan indeksatsiya qilinuvchi qimmatli qog'ozlarni joriy qilish lozim.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari pensiya tizimiga ta'sirini chuqur tahlili ushbu mamlakatlarning pensiya tizimini isloh etish borasida jamlagan ilg'or tajribasini O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirishda ijodiy foydalanish imkoniyatlari borasida qator xulosalar qilish imkonini beradi:

- pensiya tizimini isloh etishning 2030-yilgacha bo'lgan strategik kontseptsiyasini ishlab chiqish zarur;
- ko'p darajali aralash pensiya tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq;
- pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish lozim;

- pensiya tizimidagi turli imtiyozlarni va pensiyaga erta chiqishni kamaytirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar tizimini muntazam davom ettirish zarur;

- mavjud pensiya tizimini modernizatsiyalash va pensiyani mehnat stajiga qarab emas, balki sug'urta stajiga asosan to'lashga bosqichma-bosqich o'tish lozim.

III bob bo'yicha xulosa:

- pensiya fondlarining amalga oshirayotgan moliyaviy siyosatida ularning egalik qilayotgan investitsion aktivlari hajmi va ulardan foydalanish jarayonidagi mamlakatdagi boshqa moliyaviy institutlar bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati namoyon bo'ladi. Investitsion dasturlarni moliyalashtirishda Kanadadagi katta sakkizlik pensiya fondlari mamlakatdagi yirik banklar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi;

- rivojlangan mamlakatlarda pensiya fondlari yirik investitsion institutlar qatoriga kiradi. Jumladan, AQSh pensiya fondlarining investitsion dasturlarga yo'naltirilgan aktivlari hajmi 2014-yil oxiriga kelib 14,7 trln. kanada dollarini tashkil etdi. Investitsion aktivlarning ortishiga sabab XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib AQShda xususiy pensiya fondlari faoliyati jadallik bilan rivojlana bordi. Hozirda mamlakatda 700 mingga yaqin pensiya fondlari xususiy dasturlar asosida faoliyat yuritib, mehnat bozorida band bo'lgan ishchi kuchining qariyb 50 foiziga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bunday holat taraqqiy etgan mamlakatlarda pensiya fondlarining mablag'larini investitsiya faoliyatiga yo'naltirish tizimi rivojlanganligidan dalolat beradi;

- AQSh pensiya ta'minoti tizimida xususiy pensiya fondlarini jadal rivojlanishi va ularga jamlangan aktivlardan foydalanish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilganligi ushbu fondlarga investitsion dasturlardagi ishtirokini kengayishi, o'z faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida pensiya fondlarining har biri investitsion strategiyalarini ishlab chiqishi va bu orqali pensiya fondlarining daromadlari ko'rsatkichini ortishi bilan bir qatorda, global aholining qarishi muammosi

sharoitida ham pensiya fondlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga erishilmoqda;

- xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari aktivlarini xorijiy emitentlar qimmatli qog'ozlariga joylashtirish pensiya fondlari portfelining asosini tashkil qiladi. Pensiya fondi jamg'armasi portfelini diversifikatsiya qilish, ya'ni jamg'arma mablag'larini turli sohalarga investitsiyalash jamg'arma daromadlarini oshirish imkonini beradi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda pensiya jamg'armalari mablag'larini investitsiyalash hali uncha taraqqiy etmagan, yirik davlat pensiya fondlari o'z mablag'larini qimmatli qog'ozlarga yo'naltirmayapti;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat: jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari; jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari; shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag'lariga hisoblab chiqarilgan foizlar; qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'lar.

- O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirishda: pensiya tizimini isloh etishning 2030-yilgacha bo'lgan strategik kontseptsiyasini ishlab chiqish hamda pensiyani mehnat stajiga qarab emas, balki sug'urta stajiga asosan to'lashga bosqichma-bosqich o'tish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarida foydalanish mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari quyidagi *xulosalarni* shakllantirish imkonini berdi:

– Pensiya jamg'armasi fuqarolarning keksaygan chog'ida yoki nogironlik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganda, shuningdek, o'z boquvchisini yo'qotgan hollarda davlat tomonidan kafolatgan ijtimoiy ta'minot olishini ro'yobga chiqarish vositasidir. Uning yordamida keksa va qariyalar, nogironlar, etim-esirlar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlari ta'minlanadi. Shuningdek, Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, pensiya hamda boshqa to'lovlar miqdorini qonunchilikda belgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilishni ta'minlashga mas'ul muhim davlat organidir;

– taraqqiyot etgan mamlakatlarda pensiya tizimi islohotlari natijasida pensiya fondi aktivlari miqdori o'sib bormoqda va bir vaqtning o'zida ichki bozorda investitsiyalash manbalarini ta'minlamoqda. Pensiya fondlariga investitsiya qilish mazkur sohada raqobatning rivojlanishiga, moliyaviy innovatsiyalarning yaratilishiga, korporativ boshqaruvning yaxshilanishiga xizmat qilmoqda;

– 2012-2016-yillarda Pensiya jamg'armasining asosiy daromad manbalaridan biri yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar ekanligini ko'rishimiz mumkin, xususan, mazkur majburiy to'lovdan Pensiya jamg'armasiga tushumlar Pensiya jamg'armasining jami daromadlarining 50-60 foizini tashkil etayotganligini va uning ulushi yildan-yilga kamayish tendentsiyasiga ega bo'lib borayotganligini ko'rish mumkin. Fuqarolardan olinadigan sug'urta badallari esa Pensiya jamg'armasining jami daromadlari tarkibida 2012-yildagi 13,8 foizdan 2016-yilda 17,9 foizga ortgan. Bunday o'zgarishlarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan: 2015-yildan boshlab yagona ijtimoiy to'lov stavkalarining kichik biznes subyektlari va mikrofirmalar uchun 25 foizdan 15 foizga tushirilishi; fuqarolardan undiriladigan majburiy sug'urta badallari stavkalari oxirgi yillarda oshirilib borilishi; oxirgi yillarda pensiya

tizimidagi islohotlar;

- Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadida mablag'larni investitsiya maqsadlariga safarbar etish zarur. Xorijiy mamlakatlar ushbu amaliyotdan faol foydalanadilar, ya'ni pensiya fondlari mablag'larini moliyaviy aktivlarga (qimmatli qog'ozlar) yo'naltiradi va shu orqali aktivlar miqdorini oshirib, moliyaviy jihatdan barqaror bo'lib boradi;

- pensiya fondlarining amalga oshirayotgan moliyaviy siyosatida ularning egalik qilayotgan investitsion aktivlari hajmi va ulardan foydalanish jarayonidagi mamlakatdagi boshqa moliyaviy institutlar bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati namoyon bo'ladi. Investitsion dasturlarni moliyalashtirishda Kanadadagi katta sakkizlik pensiya fondlari mamlakatdagi yirik banklar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi;

- rivojlangan mamlakatlarda pensiya fondlari yirik investitsion institutlar qatoriga kiradi. Jumladan, AQSh pensiya fondlarining investitsion dasturlarga yo'naltirilgan aktivlari hajmi 2014-yil oxiriga kelib 14,7 trln. Kanada dollarini tashkil etdi. Investitsion aktivlarning ortishiga sabab XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib AQShda xususiy pensiya fondlari faoliyati jadallik bilan rivojlana bordi. Hozirda mamlakatda 700 mingga yaqin pensiya fondlari xususiy dasturlar asosida faoliyat yuritib, mehnat bozorida band bo'lgan ishchi kuchining qariyb 50 foiziga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Bunday holat taraqqiy etgan mamlakatlarda pensiya fondlarining mablag'larini investitsiya faoliyatiga yo'naltirish tizimi rivojlanganligidan dalolat beradi;

- xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari aktivlarini xorijiy emitentlar qimmatli qog'ozlariga joylashtirish pensiya fondi portfelining asosini tashkil qiladi. Pensiya fondi portfelini diversifikatsiya qilish, ya'ni jamg'arma mablag'larini turli sohalarga investitsiyalash fond daromadlarini oshirish imkonini beradi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda pensiya fondlari mablag'larini investitsiyalash hali taraqqiy etmagan;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Xalq bankida shaxsiy

jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat: jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari; jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari; shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag'lariga hisoblab chiqarilgan foizlar; qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'lar.

O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish, Pensiya jamg'armasi mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish amaliyotini jonlantirish va takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif-tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomda Pensiya jamg'armasi vaqtincha bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga va boshqa moliyaviy vositalarga joylashtirish mumkinligi ko'rsatilgan. Bu esa aynan Pensiya jamg'armasi mablag'larini investitsiya maqsadlarida foydalanishni anglatadi. Shu bois:

- Pensiya jamg'armasi daromadlari bazasini kengaytirish, bunda Pensiya jamg'armasi tomonidan aholini qamrab olish darajasini oshirish;
- xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va iqtisodiyotning norasmiy sektorini legallashtirish;
- O'zbekistonda pensiyani mehnat stajiga qarab to'lashdan sug'urta stajiga asosan to'lashga bosqichma-bosqich o'tish;
- fuqarolarning majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallariga asosiy e'tiborni qaratish, ularning stavkalarini oshirib borish siyosatini davom ettirgan holda pirovardida hisoblab chiqariladigan pensiya miqdorini ishlovchining to'lagan sug'urta badaliga bog'liqligini ta'minlash va shu orqali mazkur manbadan tushumlar miqdorini oshirish;
- mamlakatimizda pensiyaga chiqish yoshini ijtimoiy-iqtisodiy omillarni inobatga olgan holda, qadam-baqadam uzaytirib borish zarur.

2. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini samarali investitsiya qilish va daromadlilik darajasini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga

o'shish maqsadga muvofiqdir:

- mazkur pensiya tizimida jamg'arilgan mablag'larning qoldiq qismini chet el valyutasiga almashtirib, shundan so'ng ularni investitsiya qilish kerak. Buning natijasida milliy valyuta – so'mning devalvatsiyasi natijasida mablag'lar qiymatini yo'qotishning oldi olinadi;

- davlat kafolati asosida ipoteka obligatsiyalari emissiya qilib, ularga jamg'arilib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini jalb qilish lozim. Shunda ushbu qimmatli qog'ozlarning risk darajasi past bo'lib, aholini uy-joy bilan ta'minlashni moliyalashtirishdagi roli oshadi;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan respublikamiz fuqarolari bank va boshqa moliya institutlarining mikrokreditlaridan foydalanishda jamg'arilib boriladigan pensiya tizimidagi mablag'laridan kafolat sifatida foydalanishga ruxsat berish lozim. Chunki ko'pchilik fuqarolar tadbirkorlikni boshlashlari uchun kredit olishda ta'minot yo'qligi uchun qiynalmoqda.

3. Aholining pensiya tizimidagi faolligini oshirish maqsadida xususiy pensiya fondlarini tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun, eng avvalo, xususiy pensiya fondlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish, qimmatbaho qog'ozlar bozorini, investitsiya bozorini rivojlantirish zarur bo'ladi.

4. Pensiya jamg'armasi mablag'larini daromad olish maqsadida, likvidlilik, diversifikatsiya, qaytuvchanlik tamoyillari asosida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Investitsiya obyektlari sifatida biz qo'ydagilarni taklif qilamiz: O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlariga; xorijiy mamlakatlar qimmatli qog'ozlariga; davlat banki sertifikatlariga (depozit sertifikatlari); ko'chmas mulklarga (bino, inshootlar va boshqa moddiy aktivlarga) va ularga egalik qilish huquqiga; yuridik shaxslarining ustav kapitallari va boshqalarda ulushlar bilan ishtirok etishga.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013-yil 26-dekabr.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007-yil 25-dekabr.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son. 03.09.1993.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son. 02.12.2004.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdaagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4161-sonli Farmoni.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-avgustdagi PF-4822-son "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi Farmoni.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdaagi "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1251-sonli Qarori.
- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdaagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1252-son Qarori.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli Qarori.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 13-martdagi "Pensiya va nafaqalarni to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2826-sonli Qarori.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrda 490-sonli "Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori.

1.15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevralda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sonli Qarori.

1.16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-aprelda 107-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom.

1.17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrda "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli Qarori.

1.18. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995. 119-b.

1.19. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2017. – 104 b.

1.20. Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 232 b.

1.21. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К0», 2009. – 576 с.

1.22. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: "Noshir", 2012. –676b.

- 1.23. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: “Moliya”, 2010. – B. 303.
- 1.24. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – Toshkent: “infoCom.UZ” MChJ nashriyoti, 2010. – 367 b.
- 1.25. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. – М.: «Финансы и статистика», 2001. – 267 с.
- 1.26. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.
- 1.27. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 534 b.
- 1.28. Lebedova L.F. US Pension System in XXI Century' Financial-Economic Destability Risks. USA * Canada, 2014, - № 3, p. 22-30
- 1.29. Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 608 b.
- 1.30. Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. – М.: «Дашков и К0», 2006. – 372 с.
- 1.31. Zokirova M.Sh., Abdug'afforov A.A. Iqtisodiy modellashtirish amaliyoti. – T.: “O'zbekiston”, 1999.
- 1.32. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
- 1.33. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya”, 2003. – 332 b.

II. Monografiyalar, ilmiy maqola, patent va ilmiy to'plamlar

- 2.1. Axmedov M. Iqtisodiyotda “uzun” moliyaviy resurslar salmog'ini oshirishda nodavlat pensiya jamg'armasining ahamiyati // Moliya. – Toshkent. 2012. №2. 130-b.

2.2.Vaxabov A., Oxundedaeva M. Jahon pensiya tizimini rivojlantirish xususiyatlari. “Moliya” ilmiy jurnali. 2014 yil. 1-son. 87-b.

2.3.Kasimova G., Botirov A. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.

2.4.Kasimova G., Sholdorov D. Pensiya ta’minoti mablag’larini boshqarish. Monografiya. – T.: “Star poligraf”, 2017. – 228 b.

2.5.Majidov N., Niyazov M. Pensiya tizimini tartibga solishning xorij tajribasi. “Biznes-ekspert” jurnali, 11-son. 2016. 39-41-b.

2.6.Скурова А.В. Развитие системы негосударственного пенсионного страхования в России и за рубежом: автореф. к.э.н. – Москва, Всероссийская академия внешней торговли. 2011. – С. 25.

2.7.Begalov B.A. Pensiya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo’llari. “O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to’plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 3-b.

2.8.Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. “O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to’plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 11-16-b.

2.9.Ziyadullaev M.J. Pensiya ta’minotidagi islohotlar va yaratilgan interaktiv xizmatlar. “O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to’plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 19-21-b.


2.10.Островская Е. Трансформация социально-экономической модели Франции//Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2007. - №4. – С. 40-49.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. Доклад о мировом развитии. 2005. Как сделать инвестиционный климат благоприятным для всех / Пер. с англ. – М.: 2005. – С. 252-254.

- 3.2. The Economic Journal Vol. 76, No. 304 (Dec., 1966), pp. 818-822.
A.A.Walters. <https://www.jstor.org/stable>.
- 3.3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: “O'ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom. – B. 185-186.
- 3.4. 2016 Pension Sustainability Index. International Pension Papers 1/2016
- 3.5. National officials, OECD calculation and Turner, 2016. – P. 231.
- 3.6. The 2007 Annual Report of the Board of Trustees of the Federal OASDI.
- 3.7. E.Philip Davis. Pension Funds: Retirement-Income Security and Capital Markets: An International Perspective. Print ISBN-13: 9780198293040. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012. – P. 2-3.
- 3.8. DAT “Xalq bank” hisobotlari.
- 3.9. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tumani bo'limi hisobot ma'lumotlari.
- 3.10. Internet saytlari:
- www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali);
 - www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti);
 - www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);
 - www.stat.uz (O'zbekiston Davlat statistikasi qo'mitasi sayti);
 - www.pfru.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining sayti);
 - www.uza.uz (O'zbekiston milliy axborot agentligi);

Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi vakolatlari



**Evropa Ittifoqi mamlakatlarda davlat pensiya xarajatlari tendentsiyasi⁸⁷,
YaIMga nisbatan foizda**

Davlatlar	1990 y.	1995 y.	2000 y.	2005 y.	2009 y.	2020 y.	2025 y.	2030 y.
Avstriya	11,4	12,3	12,2	12,4	13,5	15,1	16,1	16,7
Belgiya	9,1	9,3	8,9	9,0	10,0	13,1	14,5	15,5
Chexiya	5,8	6,1	7,2	7,0	8,3	8,7	8,7	8,9
Daniya	5,1	6,2	5,3	5,4	6,1	10,8	10,6	10,7
Finlyandiya	7,3	8,8	7,6	8,4	9,9	14,0	14,9	15,6
Fransiya	10,6	12,0	11,8	12,4	13,7	14,4	14,5	14,9
Germaniya	9,7	10,5	11,1	11,4	11,3	10,9	11,4	12,0
Gretsiya	9,9	9,7	10,8	11,8	13,0	13,7	13,6	14,1
Vengriya	–	–	7,6	8,5	9,9	11,5	11,4	11,1
Irlandiya	4,9	4,3	3,1	3,4	5,1	9,0	9,0	9,0
Italiya	10,1	11,3	13,5	13,9	15,4	14,5	14,4	14,5
Lyuksemburg	8,2	8,8	7,5	7,2	7,7	10,8	12,4	14,0
Niderlandiya	6,7	5,8	5,0	5,0	5,1	7,4	8,3	9,1
Polsha	5,1	9,4	10,5	11,4	11,8	10,9	11,1	10,9
Portugaliya	4,9	7,2	7,9	10,3	12,3	13,5	13,4	13,2
Slovakiya	–	6,3	6,3	6,2	7,0	8,6	9,1	9,5
Sloveniya	–	–	10,5	9,9	10,9	12,2	12,5	13,3
Ispaniya	7,9	9,0	8,6	8,1	9,3	10,6	10,5	10,6
Shvetsiya	7,7	8,2	7,2	7,6	8,2	9,6	9,8	10,1
Buyuk Britaniya	4,8	5,4	5,3	5,6	6,2	7,0	7,3	7,7

⁸⁷ Островская Е. Трансформация социально-экономической модели Франции//Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2007. - №4. – С. 40-49.

**Xorijiy mamlakatlarda 2014-yilda har bir ishlovchi uchun majburiy
pensiya badallari stavkalari⁸⁸**

Mamlakatlar	Davlat sektori		Xususiy sektor		Jami
	Ishlovchi	Ish beruvchi	Ishlovchi	Ish beruvchi	
Avstaliya		9,50			9,50
Belgiya	7,50	8,86			16,40
Kanada	4,95	4,95			9,90
Chili		0,00	11,20	1,15	12,30
Daniya	0,54	0,82		12,00	13,40
Finlandiya	7,05	17,75			24,80
Fransiya	6,80	8,45	3,00	3,00	18,25
Germaniya	9,50	9,50			19,00
Islandiya	0,00	7,79	4,00	8,00	11,79
Isroil	3,75	3,75	5,50	12,00	13,00
Italiya	9,19	23,81			33,00
Yaponiya	8,74	8,74			17,47
Koreya	4,50	4,50			9,00
Lyuksemburg	8,00	8,00			16,00
Meksika			1,13	5,15	6,28
Niderlandiya	4,90	0,00		16,00	20,90
Yangi Zelandiya			3,00	3,00	6,00
Polsha	9,76	9,76			19,52
Shvetsiya	7,00	11,40		4,50	18,40
Shvetsariya	4,20	4,20	7,70	10,40	26,60
Turkiya	9,00	11,00			20,00

⁸⁸ OECD. <http://dx.doi.org>. sayti ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan ishlab chiqilgan.

**Yoshga doir pensiyalar va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bo'yicha
to'lovlarga davlat xarajatlari⁸⁹**

Mamlakatlar	Yoshga doir pensiyalar va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bo'yicha to'lovlarda davlat xarajatlari									Jami naqdsiz ko'rinishdagi xarajatlar, YalMga nisbatan foizda
	YalMdagi salmog'i, foizda					O'zgarishi, foizda	Hukumat xarajatlaridagi salmog'i, foizda		YalMdagi sof pul xarajatlari salmog'i, foizda	
	1990 Yil	1995 yil	2000 Yil	2005 yil	2011 yil	1990-2011 yillar	1990 yil	2011 yil	2011 yil	2011 yil
Avstraliya	3,1	3,6	3,8	3,3	3,5	14,0	8,5	9,7	3,4	5,2
Avstriya	11,4	12,3	12,2	12,4	13,2	16,3	22,1	26,1	11,5	13,9
Belgiya	9,1	9,3	8,9	9,0	10,2	11,7	17,4	19,0	9,0	10,4
Kanada	4,2	4,6	4,2	4,0	4,3	2,7	8,7	10,5	4,1	4,3
Chili		6,7	7,3	3,7	3,2				3,2	3,3
Chexiya	5,8	6,1	7,2	7,0	8,9	53,8		20,5	8,9	9,1
Daniya	5,1	6,2	5,3	5,4	6,2	21,4	9,2	10,8	4,6	8,5
Estoniya			6,0	5,3	6,9			18,3	6,8	7,0
Finlandiya	7,3	8,8	7,6	8,4	10,3	41,0	15,1	18,7	8,5	11,4
Fransiya	10,6	12,0	11,8	12,4	13,8	29,5	21,4	24,6	12,7	14,2
Germaniya	9,5	10,5	11,2	11,5	10,6	11,6		23,4	10,2	10,6
Gretsiya	9,9	9,7	10,8	11,8	14,5	46,3		28,0	14,5	14,7
Vengriya			7,6	8,5	10,0			19,9	10,0	10,5
Islandiya	2,2	2,4	2,2	2,0	2,1	-3,9		4,5	1,8	2,6
Irlandiya	4,8	4,3	3,1	3,4	5,3	8,5	11,5	11,2	5,0	5,8
Isroil		4,5	4,7	4,9	4,8			11,4	4,7	4,9
Italiya	11,7	13,2	13,7	14,0	15,8	35,3	22,2	31,9	13,8	16,0
Yaponiya	4,8	6,1	7,3	8,5	10,2	112,1	24,4		9,7	11,9
Koreya	0,7	1,2	1,4	1,5	2,2	205,7	3,7	7,4	2,2	2,4
Lyuksemburg	8,2	8,8	7,5	7,2	7,7	-5,3	21,6	18,1	7,0	7,7
Meksika	0,4	0,7	0,8	1,2	1,8	308,5		7,9	1,8	1,8
Niderlandiya	6,7	5,8	5,0	5,0	5,5	-18,8	12,2	10,9	5,0	6,4
Yangi Zellandiya	7,3	5,6	4,9	4,2	4,9	-33,6	14,0	11,1	4,2	4,9
Norvegiya	5,6	5,5	4,8	4,8	5,4	-3,7		12,4	4,4	7,4
Polsha	5,1	9,4	10,5	11,4	10,8	110,3		24,9	9,8	10,9
Portugaliya	4,9	7,2	7,9	10,3	13,0	166,7		26,4	12,2	13,1
Slovakiya	-	6,3	6,3	6,2	7,0			17,9	7,0	7,3
Sloveniya			10,5	9,9	11,4			22,8	11,4	11,6
Ispaniya	7,9	9,0	8,6	8,1	10,5	32,4		22,9	10,1	11,2
Shetsiya	7,6	8,2	7,2	7,6	7,4	-2,6		14,3	5,7	9,8
Shvetsariya	5,5	6,5	6,5	6,6	6,6	19,3	18,5	19,5	6,6	6,9
Turkiya	2,4	2,7	4,9	5,9	7,5	219,4		20,2	7,5	7,6
Buyuk Britaniya	4,8	5,3	5,3	5,5	5,6	17,0	11,6	11,7	5,4	6,1
AQSh	5,8	6,0	5,6	5,7	6,7	15,3	15,8	16,1	6,3	6,7
XHTT	6,2	6,7	6,8	7,0	7,9	27,8		17,5	7,3	8,4

⁸⁹ Pensions at a Glance 2015. OECD and G20 indicators. OECD (2015), Pensions at a Glance 2015: OECD and G20 indicators, OECD Publishing, Paris. http://dx.doi.org/10.1787/pension_glance-2015-en. - P. 183-186.

Davlat va xususiy pensiya to'lovi xarajatlari⁹⁰

Mamlakatlar	Tizimdagi ishtiroki	Xususiy pensiya tizimlari to'lovi xarajatlari					Davlat va xususiy pensiya xarajatlarining mamlakat YaIMidagi ulushi	Xususiy pensiyalar uchun soliqlarning qisqarishi, YaImga nisbatan foizda	
		YaIMga nisbatan ulushi							O'zgarishi, foizda
		1990 yil	1995 yil	2000 yil	2005 yil	2011 yil	1990-2011 yillar	2011 yil	2011 yil
Avstraliya	ixtiyoriy		1,8	2,9	1,9	2,1		5,6	1,9
Avstriva	ixtiyoriy	0,4	0,4	0,5	0,5	0,7	56,6	13,9	0,0
Belgiya	ixtiyoriy	1,0	1,7	1,4	1,5	1,2	15,7	11,4	0,2
Kanada	ixtiyoriy	2,5	3,4	3,9	4,2	3,3	29,3	7,6	1,5
Chili	majburiy		0,9	1,1	1,2	1,4		4,6	
Chexiya	majburiy, ixtiyoriy	-	-	0,2	0,2	0,5		9,4	0,0
		-	0,0	0,0	0,0	0,1			
Daniya	yarim majburiy	1,5	1,8	2,0	2,3	4,7	202,2	10,9	
Estoniya								6,9	
Finlandiya	ixtiyoriy	0,1	0,4	0,3	0,2	0,3	173,6	10,5	0,1
Fransiya	majburiy, ixtiyoriy	0,2	0,1	0,2	0,2	0,2	-18,7	14,1	0,0
		0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	233,0		
Germaniya	ixtiyoriy	0,7	0,7	0,8	0,8	0,8	18,1	11,4	0,9
Gretsiya	ixtiyoriy	0,4	0,4	0,5	0,5	0,4	0,5	14,9	
Vengriya								10,0	
Islandiya	ixtiyoriy	1,4	1,8	2,3	2,8	3,7	167,1	5,9	0,0
Irlandiya	ixtiyoriy	0,9	1,0	0,8	0,9	0,8	-4,3	6,1	1,1
Isroil								4,8	
Italiya	majburiy, ixtiyoriy	-	-	-	-	-	-	16,2	0,0
		0,1	0,3	0,3	0,3	0,4	159,0		
Yaponiya	majburiy, ixtiyoriy	0,2	0,3	0,5	0,4	0,6		13,0	0,0
		-	-	2,9	2,2	2,7			
Koreya	ixtiyoriy	-	0,0	0,0	0,0	0,1		2,3	
Lyuksemburgg	ixtiyoriy	-	-	-	0,6	0,6		8,3	0,0
Meksika								1,8	0,3
Niderlandiya	majburiy, ixtiyoriy	-	0,0	0,0	0,0	0,0		11,2	
		3,9	4,7	4,8	5,2	5,8	48,5		
Yangi Zelandiya								4,9	
Norvegiya	ixtiyoriy	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	15,9	6,1	0,5
Polsha								10,8	0,0
Portugaliya	ixtiyoriy	0,3	0,3	0,4	0,6	0,6	95,0	13,6	0,1
Slovakiya	ixtiyoriy	-	0,1	0,2	0,4	0,3		7,3	0,1
Sloveniya								11,4	
Ispaniya								10,5	0,2
Shvetsiya	yarim majburiy	1,2	1,9	1,8	2,1	2,6	112,5	9,9	
Shvetsariya	majburiy, ixtiyoriy	2,3	3,3	4,2	4,7	5,0	113,3	11,5	
		0,0	0,0	0,0	0,0	0,0			
Turkiya								7,5	
Buyuk Britaniya	majburiy, ixtiyoriy	4,2	5,1	6,0	4,7	4,6	7,4	10,2	1,5
AQSh	ixtiyoriy	2,6	3,0	3,6	3,6	4,5	72,5	11,2	0,8
XHTT		1,2	1,3	1,5	1,4	1,6	37,9	9,3	0,4

⁹⁰ <http://dx.doi.org>. sayti ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari va boshqa iqtisodiyoti yirik mamlakatlarda pensiya fondlari va davlat pensiya zaxirasi fondlari aktivlari⁹¹, 2013-yil

Mamlakatlar	Pensiya fondlari		Davlat pensiya zaxirasi	
	YaIMga nisbatan, %da	mln. AQSh doll.	YaIMga nisbatan, %da	mln. AQSh doll.
Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlar				
Avstraliya	102,2	1 440 898	6,1	85 597
Avstriya	5,7	25 173	x	x
Belgiya	5	27 213	5,1	27 531
Kanada	70,8	1 260 157	17,2	307 370
Chili	62,3	162 988	2,8	7 335
Chexiya	7,3	14 951	x	x
Daniya	42,1	146 700	x	x
Estoniya	9,5	2 443	x	x
Finlandiya	48,7	135 651	27	75 211
Fransiya	0,4	11 860	2,5	71 575
Germaniya	6,1	236 932	x	x
Gretsiya	0,1	136	x	x
Vengriya	4	5 506	x	x
Islandiya	141,2	22 986	x	x
Irlandiya	52,3	126 188	x	x
Isroil	50,5	152 679	x	x
Italiya	6	132 168	x	x
Yaponiya	29,2	1 331 231	26,8	1 223 863
Koreya	6	81 555	29,9	404 543
Lyuksemburg	2,1	1 323	x	x
Meksika	14,7	181 255	0,1	1 716
Niderlandiya	148,7	1 335 092	x	x
Yangi Zelandiya	18,8	33 831	10,4	20 629
Norvegiya	8,1	40 908	5,7	28 862
Polsha	18,2	100 563	1,1	5 856
Portugaliya	8,9	20 904	6,9	16 134
Slovakiya	9,8	9 926	x	x
Sloveniya	3,9	1 954	x	x
Ispaniya	8,8	127 478	5,1	74 118
Shvetsiya	9,1	53 767	28	164 650
Shvetsariya	113,4	807 893	x	x
Turkiya	4,8	35 543	x	x
Buyuk Brianiya	99,6	2 810 564	x	x
AQSh	83,2	13 946 142	16,5	2 764 431
IHTT (34 ta davlat)	82,8	24 824 555	19,7	5 279 423
Boshqa yirik iqtisodiyotlar				
Argentina	0	0	9,9	50 680
Braziliya	13,3	273 965	x	x
Evropa Ittifoqi (28 ta davlat)	94,3	5 351 027	..	..
Xitoy	1	98 896	..	..
Hindiston	0,4	6 819	6,1	116 229
Indoneziya	1,8	15 058	1,7	12 303
Rossiya Federatsiyasi	5,7	117 180	x	x
Saudiya Arabistoni	..	..	..	..
Janubiy Afrika	94,8	306 107	x	x

Eslatma: IHTTga a'zo bo'lgan 34 davlatdan va Evropa Ittifoqining 28 ta vakili pensiya fondlarining mamlakat YaIMga nisbatan foizdagi salmog'i va jami pensiya fondlari aktivlarining AQSh dollaridagi ekvivalentlari.

.. – yaroqsiz;

x – nomutanosib.

⁹¹ <http://dx.doi.org>. sayti ma'lumotlari asosida magistrant tomonidan ishlab chiqilgan.